

MILLIY ARMIYAMIZ YANGI O'ZBEKISTONNING MUSTAHKAM QALQONIDIR!

VATANPARVAR

●Gazeta 1992-yilning 24-iyunidan chiqa boshlagan ●2023-yil 8-dekabr, №49 (3059)



BIZ
HAQIMIZDA

@vatanparvar-bt@umail.uz

• t.me/mv_vatanparvar_uz
• t.me/mudofaavazirligi

facebook.com/mudofaavazirligi

instagram.com/mudofaavazirligi
youtube.com/c/uzarmiya

IJTIMOIY-SIYOSIY, MA'NAVIY-MA'RIFIY, HARBIY-VATANPARVARLIK GAZETASI

www.mv-vatanparvar.uz



8
dekabr

O'zbekiston Respublikasi
Konstitutsiyasi qabul
qilingan kun



O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari O'zbekiston Respublikasining davlat suverenitetini va hududiy yaxlitligini, aholining tinch hayoti va xavfsizligini himoya qilish uchun tuziladi.

Qurolli Kuchlarning tuzilishi va tashkil etilishi qonun bilan belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 152-moddasi



YUKSAK NAMUNA – MUSTAHKAM POYDEVOR

Mudofaa vazirligi markaziy apparatida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 31 yilligi munosabati bilan bayram tadbiri o'tkazildi. Unda mudofaa vazirining birinchi o'rinnbosari – Qurolli Kuchlar Bosh shtabi boshlig'i general-major Shuxrat Xalmuxamedov va boshqa vazir o'rinnbosarları, Oliy Majlis Senatining Mudofaa va xavfsizlik masalalari qo'mitasi raisi Kutbidin Burxanov hamda faxriylar ishtiroy etdi.



Bahrom ABDURAHIMOV

Tadbir avvalida so'zga chiqqan general-major Shuxrat Xalmuxamedov barchani samimi muborakbod etdi va mudofaa vazirining bayram tabrigini o'qib eshittirdi.

Tabrikda ta'kidlanganidek, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi xalqimiz siyosiy-huquqiy tafakkurning yuksak namunasi sifatida yurtimizning xalqaro maydonda munosib o'rinn egallashida mustahkam poydevor bo'lib xizmat qilmoqda. Mana shu huquqiy asosga tayanib keyingi yillarda mamlakatimizda ijtimoiy-iqtisodi, siyosiy va harbiy sohada keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya

hamda isloh etish, inson huquqlarini ta'minlash va himoya qilish borasida keng qamrovli ishlar amalga oshirildiki, bu borada erishilgan marralarda Konstitutsiyaning hayotbaxsh tamoyillari muhim ahamiyat kasb etadi.

Barchamizga ma'lumki, inson huquq va erkinliklarining qonuniy kafolati bo'lgan Bosh qomusimizning yangi tahriri joriy yilning may oyidan kuchga kirdi. Mazkur yangi tahrirdagi Konstitutsiya mamlakatimizning demokratik davlat sifatidagi maqomini mustahkamladi, barcha sohalarda inson qadrining tom ma'noda yuksalishiga erishildi. Zotan, dunyoda kundan kunga yangi xavf-xatar va yangi tahdidlar paydo bo'immoqda.

Shunday murakkab vaziyatda inson, uning hayoti, huquq va erkinliklarini himoya qilish, qonuniy manfaatlarini ta'minlash, shu asnoda inson qadrini ulug'lash ustuvor vazifaga aylanmoqda. Tadbirda so'z olgan Oliy Majlis Senatining Mudofaa va xavfsizlik masalalari qo'mitasi raisi Kutbidin Burxanov bu haqda atroflicha fikr yuritar ekan, yangi Konstitutsiyamizda muhrlab qo'yilgan qoida va tamoyillardan kelib chiqib, Qurolli Kuchlarimiz faoliyatining huquqiy tizimi yaratilganini misollar orqali tushuntirib o'tdi.

Ko'tarinkи ruhda o'tgan tantanada mudofaa vazirining buyrug'iga asosan, O'zbekiston Respublikasi

Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 31 yilligi munosabati bilan bir guruh harbiy xizmatchilar, Qurolli Kuchlar xizmatchilari va faxriylar "Namunali xizmati uchun", "Jangovar faoliyati uchun", "Maxsus operatsiyalar kuchlari" hamda "Yosh avlodni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashdagi faol ishtiroyi uchun" ko'krak nishoni, mudofaa vazirining esdalik nishoni va faxriy yorlig'i bilan taqdirlandi.


Qurolli Kuchlar Markaziy ashula va raqs ansambl hamda tanqli xonandalar ijrosidagi kuy-ko'shiqlar kechaga o'zgacha fayz bag'ishladi.

**Podpolkovnik
Gulnora HOJIMURODOVA**



HUQUQ VA ERKINLIK

KAFOLATI



O'zbekiston mustaqillikka erishganidan keyin o'ziga xos taraqqiyot yo'lini, ya'ni insonparvar demokratik huquqiy davlat va kuchli fuqarolik jamiyati qurishni o'z oldiga maqsad qilib belgilab oldi. Bu yo'lida demokratik yangilanishlarni yanada chuqurlashtirish, mamlakatni modernizatsiya qilish borasida tub islohotlar bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi – ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, madaniy taraqqiyotimiz ko'zgusidir. Unda xalqimizning irodasi, ruhiyati, dunyoqarashi, tafakkuri, madaniyati, ma'naviyati, ijtimoiy-siyosiy ongi o'zining mukammal ifodasini topgan.

O'tgan davr mobaynida hayotimizning barcha sohalarida tub o'zgarishlar amalga oshirildi. Bu islohotlar bir-biri bilan uzviy bog'liqidir. Ushbu islohotlarni amalga oshirishda esa Konstitutsiyamizning o'rni beqiyos.

Joriy yilning 30-aprel kuni o'tkazilgan O'zbekiston Respublikasi referendumida umumxalq ovoz berish orqali O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi

qabul qilindi. Aytish joizki, Konstitutsiyamizda ilgari qonunchilikda mavjud bo'lmagan bir qator muhim qoidalar mustahkamlandi va ular mazmun-mohiyatiga ko'ra, "Inson – jamiyat – davlat" tamoyilini konstitutsiyavni qoida sifatida muhrlashga qaratilgan.

Zero Bosh qonunimizda inson qadri, uning huquq va manfaatlari kafolatlari bilan bog'liq ko'plab normalar o'z aksini topganki, bu mamlakatimizning chinakam demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat sifatida jahon hamjamiyatidagi o'mini yanada mustahkamlaydi.

Binobarin, Konstitutsiyamizning 13-moddasiga asosan, O'zbekiston Respublikasida demokratiya umuminsoniy prinsiplarga asoslanadi, ularga ko'ra inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr-qimmati va boshqa daxlsiz huquqlari oly qadriyat hisoblanadi. Shuningdek, demokratik huquq va erkinliklar Konstitutsiya va qonunlar bilan himoya qilinadi.

Asosiy qonunning 19-moddasida O'zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, e'tiqodi, ijtimoiy kelib chiqishi va mavqeidan qat'i nazar, qonun oldida tengligi belgilab qo'yilgan.

Shuningdek, Konstitutsyaning 23-moddasida O'zbekiston Respublikasi o'z hududida ham, uning tashqarisida ham o'z fuqarolarini himoya qilishi va ularga homiylik ko'rsatishi, 24-moddasida esa respublika hududidagi chet el fuqarolarining va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning huquq va erkinliklari xalqaro huquq normalariga muvofiq ta'minlanishi kafolatlab qo'yilgan.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi oly normativ huquqiy manba sifatida mudofaa va xavfsizlikni ta'minlashning asosiy masalalari bo'yicha ham muhim ustuvor prinsiplar va normalarni belgilab beradi.

Jumladan, Asosiy qonunning 152-moddasida O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari O'zbekiston Respublikasining davlat suverenitetini va hududiy yaxlitligini, aholining tinch hayoti va xavfsizligini himoya qilish uchun tuzilishi, 153-moddasida esa O'zbekiston Respublikasi o'z xavfsizligini ta'minlash uchun yetarli darajada Qurolli Quchlariga egaligi belgilab qo'yilgan. Mazkur normalar mamlakatimiz tinchliksevar siyosatining yaqqol belgisi bo'lib, O'zbekiston Qurolli Kuchlari mamlakatimiz xavfsizligi va barqarorligini, hududiy yaxlitligini,

chegaralarimiz daxlsizligini, fuqarolarimizning tinch va osoyishta hayotini ta'minlash uchun tashkil etilgan.

Demokratik jamiyatning eng muhim belgilaridan biri jamiyat a'zolarining qonun oldidagi tengligi, Konstitutsiya va qonunlar ustunligining ta'minlanganidir. Konstitutsiya va qonunlar ustunligining mohiyati O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining alohida bobida belgilab berilgan.

Asosiy qonunimizning 15-moddasiga muvofiq, mamlakatimizda O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlarining ustunligi so'zsiz tan olinishi, shuningdek davlat va uning organlari, boshqa tashkilotlar, mansabdar shaxslar, fuqarolik jamiyati institutlari hamda fuqarolar Konstitutsiya va qonunlarga muvofiq ish yuritishi belgilab qo'yilgan.

Shuni alohida aytib o'tish lozimki, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi mamlakatning butun hududida oly yuridik kuchga ega, to'g'ridan to'g'ri amal qiladi va yagona huquqiy makonning asosini tashkil etadi.

Konstitutsyaning 16-moddasida mustahkamlangan qoidaga binoan, O'zbekiston Respublikasining qonunlari va boshqa normativ-huquqiy hujjalari O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi asosida va uni ijro etish yuzasidan qabul qilinadi. Birorta qonun yoki boshqa normativ-huquqiy hujjal Konstitutsyaning prinsip va normalariga zid bo'lishi mumkin emas.

Konstitutsiyaviy odil sudlov zamonaliv demokratik davlatning alohida talabi, zaruriy instituti bo'lib, Konstitutsyaning ustunligini ta'minlash hamda mamlakatimizda qonuniylik muhiti, inson huquqlari va erkinliklari kafolatlarini yaratishning ishonchli garovidir.

Mamlakatimizda Konstitutsyaning ustunligini ta'minlash, qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyat hujjalaring Konstitutsiyaga muvofiqligi to'g'risidagi ishlarni ko'rish O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudiga yuklatilgan. Konstitutsiyaviy sud mazkur vakolatni amalga oshirish orqali demokratik huquqiy davlatning muhim sharti hisoblangan qonun ustuvorligini ro'yogba chiqishiga ko'maklashadi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 133-moddasiga muvofiq, Konstitutsiyaviy sud o'zining vakolatlari doirasida quyidagi masalalarni ko'rib chiqadi: qonunlarning va Oliy Majlis palatalari qarorlarining, Prezident farmonlari,

qarorlari va farmoyishlarining, hukumat, mahalliy davlat hokimiyyati organlari qarorlarining, O'zbekiston Respublikasi davlatlararo shartnomaviy va boshqa majburiyatlarining Konstitutsiyaga muvofiqligini aniqlaydi; Prezident tomonidan imzolanguniga qadar – konstitutsiyaviy qonunlarning, ratifikatsiya qilish to'g'risidagi qonunlar Prezident tomonidan imzolanguniga qadar – xalqaro shartnomalarning Konstitutsiyaga muvofiqligini aniqlaydi; referendumga chiqarilayotgan masalalarning Konstitutsiyaga muvofiqligi to'g'risida xulosa beradi; Qoraqalpog'iston Respublikasi Konstitutsiyasining O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga, Qoraqalpog'iston Respublikasi qonunlarining O'zbekiston Respublikasining qonunlariga muvofiqligi to'g'risida xulosa beradi; Konstitutsiya va qonunlar normalariga sharh beradi; Oliy sudning muayyan ishda qo'llanilishi lozim bo'lgan normativ-huquqiy hujjalarning Konstitutsiyaga muvofiqligi to'g'risida sudlar tashabbusi bilan kiritilgan murojaatini ko'rib chiqadi; konstitutsiyaviy sudlov ishlarni yuritish amaliyotini umumlashtirish natijalari yuzasidan har yili Oliy Majlis palatalariga va Prezidentga mamlakatdagi konstitutsiyaviy qonuniylikning holati to'g'risida axborot taqdim etadi.

Shu jumladan, yuqorida ko'rsatib o'tilgan moddada fuqarolar va yuridik shaxslar, agar sud orqali himoya qilishning boshqa barcha vositalardan foydalanib bo'lingan bo'lsa, sudda ko'rib chiqilishi tugallangan muayyan ishda sud tomonidan o'ziga nisbatan qo'llanilgan qonunning Konstitutsiyaga muvofiqligi to'g'risidagi shikoyat bilan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudiga murojaat qilishga haqli ekanligi belgilab berilgan.

Mazkur norma Konstitutsyaning 55-moddasida belgilangan, har kim o'z huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilish huquqi yanada kafolatlanishiga xizmat qiladi.

Konstitutsiyaviy sud o'ziga xos vakolatga ega bo'lgan sud hokimiyyati bo'lgani bois, uning muhokamasiga masalalarni kiritish tartibi ham "O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi to'g'risida"gi Konstitutsiyaviy qonunda alohida belgilab qo'yilgan.

Xulosa qilib aytganda, mamlakatimizda insonparvar demokratik huquqiy davlat barpo etish, inson manfaatlari, huquq va erkinliklarining oly qadriyat sifatida qaror toptirish borasida o'tgan davr mobaynida barcha sohalarda qanday natija va yutuqlarni qo'iga kiritgan bo'lsak, ularning barchasi Konstitutsiyamizda belgilab qo'yilgan qoidalar bilan uzviy bog'liqidir.

**Umidjon GIYAZOV,
O'zbekiston Respublikasi
Konstitutsiyaviy sudining
katta eksperti**



BU SHUNCHAKI

...O'g'lon ichida aста pichirlaydi. Qo'lida AK-74. Qisqa vaqt ichida qurolni sochib-yig'ish amaliyotini bajarmoqda.

Qo'lidagi "birodari"ga esa ohista muomala qiladi:

+ ...Uyaltirma meni. Bo'laqol! Joylasha qol!.. Hap!

O'g'lon shoshadi. Safdoshlari shoshiradi:

+ ...Tezroooq! Qaraaa, yetvolyapti. Ozgina qoldi!..

Bunday atmosferani faqatgina armiya o'yinlarida topishingiz mumkin. Jangovar qurollarni bir lahzalik vaqt mobaynida ham sochib, ham yig'ishni yana kim ham eplay olardi.

Markaziy harbiy okrugning "Forish" tog' poligonida "Men g'olib!" shiori ostida an'anaviy tarzda o'tkazib kelinayotgan armiya o'yinlarining "Harbiy-tibbiy estafeta" hamda "Qurolsoz usta" musobaqlari qizg'in munozaralarga boy o'tdi. Besh kun davomida beshta harbiy okrug hamda Toifalangan obyektlarni qo'riqlash qo'shinlari qo'mondonligidan tashrif buyurgan jami oltita jamoa ham kuch, sabr-bardosh, iroda hamda tibbiy mahorati bo'yicha o'zaro bahs olib bordi.

"Harbiy-tibbiy estafeta" musobaqasida ishtirokchi jamoalar ikki bosqich, ya'ni "Individual mahorat" va "Jamoa birinchiligi" bo'yicha bellashdi. O'q otish, majmuaviy kompleks to'siqli yo'laklardan o'tish, maxsus tayyorgarlik bo'yicha musobaqa hamda "Eng ilg'or haydovchi" tanlovlariда bellashgan jamoalar g'oliblik uchun astoydil ter to'kishdi.

Agarda har bitta shart, har bitta bosqichning yakuniy natijalariga e'tibor qaratilsa, jamoalarning musobaqaga mukammal darajada tayyorgarlik ko'rganini payqashimiz mumkin. Misol uchun, musobaqa davomida eng qiziqarli bosqichlardan biri bo'lmish "Jamoa birinchiligi"da ishtirokchilar shartli yaradorlarga birinchi tez tibbiy yordam ko'rsatgan holda ularni suv to'siqlaridan olib o'tish amaliyotini bajardi. Jarayon davomida jamoalar yakdillik namoyon qilib, qisqa vaqtida jarima ballarsiz shartni yakunlashga intildi.

Shuni alohida ta'kidlab o'tish lozimki, jamoalar oxirgi bosqichga qadar bir-biriga imkoniyatni boy berishmadni. Biroq musobaqa o'z nomi bilan musobaqa va unda eng kuchlilargina shohsupaning yuqori pog'onasidan joy oladi. Bunda nafaqat soniyalar, balki soniyaning ulushlari ham vaziyatni o'zgartirib yuborishi mumkin.

Yakuniy natijalariga ko'ra, "Harbiy-tibbiy estafeta" musobaqasida umumjamoa hisobida faxrlı birinchi o'rinni bir yo'la ikki jamoa: Markaziy harbiy okrug hamda Shimoli-g'arbiy harbiy okrug jamoalari qo'lga kiritdi. Ikkinci o'rinni Toshkent harbiy okrugi hamda Janubi-g'arbiy maxsus harbiy okrug terma jamoalari egallagan bo'lsa, uchinchi o'rinni Sharqi harbiy okrug va Toifalangan obyektlarni qo'riqlash qo'shinlari qo'mondonligi terma jamoalariga nasib etdi.





MUSOBAQA EMAS!

Mualif surʼatiga oʻlgan



Shuningdek, "Qurolosoz usta" musobaqasi ham qiziqarli va intrigaga boy tarzda oʼtdi. Unda jamoalar beshta shart boʼyicha oʼz mahoratlarini namoyon qilgan holda oʼzarlo bellashdi. Mazkur musobaqada ham respublikamizning turli nuqtalaridan tashrif buyurgan harbiy xizmatchilar tanlovda birinchilikni qoʼlga kiritish uchun bahslarga puxta tayyorgarlik koʼrgani namoyon boʼldi. Buni bir-biridan qiziqarli shartlarning yakuniy natijalaridan ham bilib olish mumkin. Misol uchun, "Qurolosoz usta" musobaqasining eng qiziqarli va intrigaga boy boʼlgan "Taʼmirlash vzdodlari kompleks estafetasi" shartida jamoalar toʼrtta bosqichda bajargan amallarini umumlashtirgan holda qisqa vaqtda, jarima ballarisiz estafeta shartini bajarib, oʼz mahoratlarini yana bir karra isbotladi.

Yakuniy natijalarga koʼra, "Qurolosoz usta" musobaqasida faxrli birinchi oʼrinni Markaziy harbiy okrug terma jamoasi qoʼlga kiritdi. Ikkinci oʼrinni Janubi-gʼarbiy maxsus harbiy okrug hamda Sharqi harbiy okrug jamoalari qoʼlga kiritgan boʼlsa, uchinchi oʼrin Toshkent harbiy okrugi hamda Shimoli-gʼarbiy harbiy okrug terma jamoalariga nasib etdi. Shu bilan birgalikda musobaqa davomida yuqori natijalarni qayd etgan jamoa aʼzolari turli nominatsiyalar boʼyicha ham gʼolib deb topildi.

Armiya oʼyinlari bahslarining yopilish marosimida soʼzga chiqqanlar gʼolib jamoalarni samimiy tabriklab, musobaqani oʼtkazishda yaqindan yordam bergen tashkilotchilarga minnatdorlik bildirdi. Shuningdek, shartlarni odilona baholab borishda oʼz bilim va koʼnikmalarini ayamagan hakamlar hayʼati aʼzolarining xizmatlarini ham alohida eʼtirof etishdi.

Yakunda gʼolib va sovrindorlar kubok, diplom hamda qimmatbaho sovgʼalar bilan taqdirlandi. Boshqa yoʼnalishlarda boʼlgani kabi bu yigitlar ham kelgusida Xalqaro armiya oʼyinlari va boshqa xalqaro musobaqalar doirasida oʼtkaziladigan bellashuvlarda yurtimiz sharafini himoya qiladigan asosiy nomzodlar sifatida koʼriladi.



Sherzod EGAMBERDIYEV,
"Vatanparvar"

EPCHILLIK, MERGANLIK, SHIJOAT NAMUNASI



Mudofaa vazirligi Mutaxassis va xizmat itlarini tayyorlash markazida "Men g'olib!" shiori ostida dog-biatlon bo'yicha Mudofaa vazirligi birinchiligi o'tkazildi. Deyarli bir hafta davomida epchillik, menganlik, shijoat namunasi namoyish etilgan, murosasiz kurashlarga boy bo'lgan musobaqada erkaklar va ayollar yakkalik hamda jamoaviy hisobda sovrinli o'rinalar uchun kurash olib borishdi.

Daler Ikromov "Eng yaxshi kinolog" deb topildi.

Yakkalik bellashuvlarida ko'sratilgan natijalar orqali jamoaviy birinchilikdagi ko'satkichlar aniqlab borildi. Bu borada g'oliblik uchun asosiy kurash Toshkent harbiy okrugi va Toifalangan obyektlarni qo'riqlash qo'shinlari qo'mondonligi ayollar

bahslarida "Eng yaxshi kinolog" nomiga sazovor bo'lgan Daler Ikromov jamoadoshlari Mirzohid Mamatov hamda Shamsiddin Qo'shoqov bilan birgalikda yana bir marta shohsupaning eng yuqori pog'onasiga ko'tarildi. Bu yo'nalishda Shimoli-g'arbiy harbiy okrug va Toifalangan obyektlarni qo'riqlash qo'shinlari qo'mondonligi jamoalar



Musobaqaning bu yilgi sovindorlari to'rtta ayol, yettita erkak – jami 11 ta jamoa orasidan va elliidan ortiq qatnashchi o'tasida aniqlandi. Ishtirokchilar dog-biatlon (yakkalik va estafeta), himoya qorovul xizmati, xizmat itlari yordamida portlovchi moddalarni izlab topish, 300 metrlik to'siqlar yo'lagidan o'tish, mohir o'qchi kabi bir-biridan qiziqarli shartlar bo'yicha bahslashdi. Kutilganidek, ayollar yakkalik bahslarida "Eng yaxshi kinolog" nominatsiyasi uchun O'g'iloy Muzaffarov, Viktoriya

Morozova, Zemfira Azatova, Dilnavoz Sherqulova, Asal Karimova o'zaro bellashdi. Beshta shart natijalariga ko'ra, kichik serjant O'g'iloy Muzaffarova (*Toshkent harbiy okrugi*) tomonidan to'plagan ochkolar unga bu yo'nalishda g'oliblikni taqdim qildi. Erkaklar yakkalik bahslarida ham g'oliblik Toshkent harbiy okrugi vakiliga nasib etdi. Mirzohid Mamatov, G'ayrat Arslonov, Suxrobjon Bog'bekov, Nodir To'rayev kabi kuchli raqiblarini ortda qoldirishga muvaffaq bo'lgan III darajali serjant

jamoalari o'tasida bo'lib o'tdi. Oxirgi shartga qadar ikki raqib jamoa ham g'oliblikni qo'liga kiritish imkoniyatini saqlab qolgandi. Ammo estafeta bellashuvida O'g'iloy Muzaffarova hamda Viktoriya Morozova juftligi tomonidan namoyish etilgan epchillik, menganlik va shijoat Toshkent harbiy okrugi jamoasi g'alabasini ta'minladi.

Erkaklar musobaqasida ham g'oliblik uchun asosiy kurash aynan Toshkent harbiy okrugi va Toifalangan obyektlarni qo'riqlash qo'shinlari qo'mondonligi jamoalari o'tasida kechdi. Yakkalik

ko'sratgan natijalar ikkinchi o'ringa loyiq topildi. Sharqi, Markaziy hamda Janubi-g'arbiy maxsus harbiy okruglar jamoalarining to'plagan ochkolarini uchinchi o'rinn uchun yetarli bo'ldi.

Musobaqa yakunida yakkalik va jamoaviy bellashuvlar g'olib va sovindorlariga, shuningdek o'nga yaqin nominatsiya bo'yicha eng yaxshi deb tan olingen harbiy xizmatchilarga kubok, diplom hamda esdalik sovrinlar topshirildi.

Asror RO'ZIBOYEV



Mualif surʼatga oʻgan

OTLIO ESTAFETA

Inson ot uštida ham jisman, ham ruhan tetiklashadi. Kuchiga kuch, shiddatiga shijoat qoʼshiladi. Texnika rivojlanib borayotgan bugungi kunda ham tulporlarga boʼlgan ehtiyoj ortsa ortmoqdaki, zarracha kamaygani yoʼq. Ayniqsa, harbiy xizmatchilar uchun togʼ va togʼoldi hududlarda belgilangan topshriqlarni bajarishda ottarning oʼrnini hech bir texnika bosa olmaydi. Shaxsiy tarkib, oʼq dori va qurol aslahalarni belgilangan nuqtaga oʼz vaqtida va oson yetkazishda ushbu ulovlarning oʼni beqiyos.



Toshkent viloyatining Oʼta Chirchiq tumanida joylashgan “Oʼzbegim otlari” ot zavodi bazasida Mudofaa vazirligi tomonidan oʼtkazilgan “Ot ustida estafeta” musobaqasi ham ana shunday shiddatli va shijoatlari harbiy xizmatchilarni bir joyga jamladi. Unda kuch tuzilmalaridan tashrif buyurgan chavondozlar birinchilik uchun bahs olib bordi. Musobaqa shartlariga koʼra, ishtirokchi 100 metrik masofani ot ustida bosib oʼtish jarayonida balandlikdagi va yerdagi bayroqni yulib olishi, marraga yetgach, otni tashlab, ortga yugurib qaytib kelish kerak. Estafeta tarzda oʼtkazilgan ushbu shartda har bir jamoadan 3 nafar vakil ishtirok etdi.

– Xalqimizda “Ot – yigitning qanoti” degan ibora bor. Buning qanchalar haqiqat ekanligini otga

mehr qoʼyan chavondozlar koʼproq biladi, – deydi podpolkovnik Zokir Yallakayev. – Ot sporti va yilqichilikni rivojlantirish uchun hukumat darajasidagi qarorlar ham qabul qilindi. Oʼtmishga nazar tashlasak, bizning buyuk sarkardalarimiz ham otliq askarlar bilan jang maydonlariga kirib gʼolib boʼlishgan. Bugungi kunda togʼ va togʼoldi hududlarida otliq askarlar xizmatiga ehtiyoj sezilmoqda. Shundan kelib chiqib, bu soha ham rivojlanib bormoqda. Rivojlanish asnosida turli sport musobaqalari va marafonlar oʼtkazilib, harbiy xizmatchilarning koʼnikmasi oshirilyapti. Quvonarlisi, bugungi musobaqaga ot sportiga qiziqqan yoshlar ham tashrif buyurgan. Bizning kelajagimiz boʼlgan yosh avlodning ot bilan oshno boʼlishi bu sohaning

rivoji uchun kafolat boʼlib hisoblanadi. Ot minishga, koʼpkari tomosha qilishga qiziqmagan yigit kam boʼlsa kerak. Musobaqa ishtirokchilarining yigʼilgan ballarini hisoblagunumizga qadar, ajodolarimizdan bizgacha yetib kelayotgan azaliy urf-odatlarimizdan koʼpkari musobaqasini uyushtirdik. Unda kuch tuzilmalari harbiy xizmatchilaridan iborat chavondozlar uloq uchun kurash olib bordi. Koʼpkari chavondozdan jasorat, uddaburonlik, shavq va tezkorlikni talab etadigan oʼyin boʼlganligi uchun ham bellashuv qizgʼin va shiddatli kechdi.

Musobaqada tomoshabinlar uchun mutaxassislar nazoratida kamondan oʼq otish, pichoq uloqtirish va sharikli oʼq otadigan avtomatdan nishonni moʼljalga olish kabi koʼngilochar oʼyinlar ham tashkillashtirildi.

“Ot ustida estafeta” musobaqasi ishtirokchilarining koʼrsatgan natijasi umumlashtirildi. Hakamlar hayʼati tomonidan chiqarilgan qarordan norozi boʼlgan jamoa aʼzolari 3 ta nuqtaga oldindan oʼnatilgan kamerlardagi videoyozuvlarni qayta koʼrib chiqishni soʼradi. Shu asnoda bahsli vaziyatlarga xolisona yechim topildi.


Musobaqaning umumlashtirilgan natijalariga koʼra 3-oʼrinni Milliy gvardiya vakillari, 2-oʼrinni Davlat xavfsizlik xizmati Chegara qoʼshinlari va faxrlı 1-oʼrinni Mudofaa vazirligi jamoasi qoʼlga kiritdi.

Gʼolib va sovrendorlar medal, kubok va qimmatbaho sovgʼalar bilan taqdirlandi.

Sherzod SHARIPOV,
“Vatanparvar”

PSIXOLOGIY MARKAZ OCHILDI

Qurolli Kuchlar akademiyasida Mudofaa vazirligi Psixologik tayyorgarlik markazining tantanali ochilish marosimi o'tkazildi.



III darajali serjant Olim BERDIYEV



Unda mudofaa vazirining birinchi o'rinnbosari – Qurolli Kuchlar Bosh shtabi boshlig'i general-major Shuxrat Xalmuxamedov O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida harbiy xizmatchilarning axloqiy-ruhiy tayyorgarligi va jangovar ruhini oshirish, turli murakkab va og'ir vaziyatlarga nisbatan ruhiy bardoshliligini mustahkamlashga qaratilgan ishlar "Yuksak jangovar ruh askarning yengilmas kuchi, armiyaning qudratidir!" degan konseptual g'oya asosida amalga oshirilayotganini ta'kidladi. Shuningdek, so'nggi vaqtlarda jahon va mintaqadagi harbiy-siyosiy vaziyat, qator davlatlar o'tasida qurolli to'qnashuv va harbiy mojarolarning avj olayotgani hushyorlikni pasaytirmaslik, har qanday vaziyatda harbiy xizmatchilarda yuksak axloqiy-jangovar ruhiyatni saqlab qolish qobiliyatlarini shakllantirish dolzarbligini qayd etdi va markaz faoliyatiga ulkan zafarlar tiladi.

So'ng mehmonlar ramziy tasmani kesib, markazda yaratilgan zamonaliv sharoitlar bilan yaqindan tanishdi. Mudofaa vazirligi qo'shinlarida xizmat qilayotgan harbiy psixologlar, Qurolli Kuchlar faxriylari, harbiy psixologiya yo'nalishida ta'lif olayotgan kursantlar ishtirok etgan tadbirda Psixologik tayyorgarlik markazi uchun yangidan barpo qilingan jangovar treninglar laboratoriysi, vaziyatli o'yinlar sinfi, ruhiy zo'riqishlarni yechish xonasi va imkoniyatlari haqida ma'lumot berildi.

– Mazkur markazni tashkil etishdan asosiy maqsad har qanday standart va nostandard vaziyatlarda harbiy xizmatchilarning doimiy

jangovar va psixologik barqaror holatini ta'minlash hamda shaxsiy tarkibni jangovar vazifani so'zsiz bajarishga safarbar etish bo'yicha mutaxassislarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish hisoblanadi, – deydi podpolkovnik Sherzod Ravshanov. – Mazkur markazda Mudofaa vazirligi qo'shinlaridagi tarbiyaviy va mafkuraviy ishlar organi ofitserlari, harbiy psixologlar, shuningdek qo'shinlardagi guruh komandirlari va ularning o'rinnbosarlari, yo'riqchi-serjantlarning malakasi oshiriladi. Uch hafta davomida o'tkaziladigan nazariy va amaliy mashg'ulotlar tinglovchilarni ijodiy fikrlashga, yuqori tashkilotchilik va tashabbuskorlik bilan faol harakatga yo'naltirishga, shuningdek turli vaziyatlarda shaxsiy tarkibning psixologik holati va unga ta'sir etuvchi omillarni baholashga zamin yaratadi. Markazda tahsil oluvchi harbiy xizmatchilar mashg'ulotlar davomida egallagan bilim va amaliy ko'nikmalarini kelgusida qo'shinlarda faol qo'llab, yuqori samaraga erishishi shubhasiz.



Katta leytenant
Dilshod RO'ZIQULOV,
"Vatanparvar"

Ajdodlar mardona ruhi senga yor...

Madhiya arabchada maqtov qo'shig'i, qasida ma'nosini bildiradi. Biror shaxs, narsa, voqeani maqtab yozilgan, o'qilgan she'r yoki nutq, madh, maqtov bu madhiyadir. Ayniqsa, qadim muhorabalarda bu so'zning "tantanali qo'shiq" sifatidagi ma'nosini muhim rol o'yagan.

Ilk madhiyalarning ritmi va ohangi ular kelib chiqqan madaniyat, mintaqalarga tarixiy davrga qarab sezilar darajada o'zgarib borgan. Ular tantanali, g'amgin, quvnoq ruh bilan ijro etilgan. Kuylash uslublari xilma-xil bo'lib, ba'zilarida yakkaxon, boshqalar guruhi bo'lib ijro etilgan. Yoki yakka irochi qo'shiqning bir satrini kuylaydi va bunga boshqalar jo'nlikda javob qaytaradi.

Qanchalik izlanilmasisin, ilk madhiyalarning aniq kelib chiqish davriyigini topish mushkul masala. Ammo bizgacha yetib kelgan qadimiyyat madhiyalar ravishida shakl va ritmlarni taxmin qilish mumkin.

Eng qadimgi madhiyalaridan ba'zilari qadimgi Shumerqa (*hozirgi Irog*) eramizdan avvalgi 2500-yillarga to'g'ri kelib, ular mixxat yozuvidagi turli xudo va ma'budalarga fazilatlarini madh etishga qaratilgan.

Qadimgi misrliliklarning ham o'z xudolariga minnatdorlik, maqtov va sharaf yo'g'rilgan qo'shiqlari bo'lgan. Masalan, Fir'avn Exnatonga tegishli "Aton madhiysi" quyosh xudosi Atonni ulug'laydigan mashhur madhiyalaridan biridir. Yunonlarda esa Apollon, Germes va Afrodita kabi turli xudolarni ulug'lovchi "Gomer madhiyalarini" bo'lgan. Ular diniy bayram va marosimlarda ijro etilgan.

Manbalarda keltirilishicha, Sug'diyona, Xorazm, Farg'onada vodiysiga va Toshkent vohasida qadimdan "Avesto" ijrochiligi bilan bog'liq namoyishlar, qayroq va zang bilan ijro qilinadigan o'yinlar, kamon, qilich, pichoq, kaltak va mash'alalar bilan

o'ynaladigan jangovar raqsalar va qo'shiqlar ijro etib kelingan. Ular homiy va pirlarni shu tarzda sharaflashgan.

Madhiyalar dastlab yaratgandan panoh va omonlik so'rash qabilidagi murojaatlarni shaklida bo'lgan. Turkiy dostonlarda ham qahramonlarning homiy va pirlar ko'magida bo'lishi, shu sababli ham ular qattiq muhofazalangan, yengilmas va har qanday qiyin vaziyatdan mardonavor o'tadigan kuch sifatida tasvirlanadi.

"Alpomish" dostonida Hakimbekning tug'ilgan mahal dastlab Shohimardon pir boradi, ismini Hakimbek qo'yib, o'ng eyniga besh panja uradi. Pirning tarbiyatidan so'ng qahramon "O'tda kuymas, qilichda chopilmas, miltiq o'q'i o'tmas" darajaga yetadi.

Dostonda bu holni isbotlovchi ko'plab lavhalar bor. Xususan bir o'rinda: "Urayotir, qilich, olmos, Hech bir isfihon kor qilmas", deyilsa, boshqa ta'rifda: "O'qqa tutadi qalmoqlar, O'qi botmay bundan qaytar, qabilida izohlanadi.

HARBIY MARSH QO'SHIQLARI

Madhiyalar shubhasiz jang qo'shiqlarining o'zagini tashkil etgan. Marsh qo'shiqlari jangchilarni bir ritmda ushlab turish, ularning qadamlarini sinxronlashtirish va barqaror sur'atni saqlashga yordam bergan. Qo'shiqlar yoki kuylarning takroriy ohangi uzoq yurishlar paytida qo'shinlarni fikr-xayollarini bir nuqtaga jamlay olishlariga ko'maklashgan.

Tarixchisi Kvint Kursiy Ruf:
"...Sug'diyonlar – jasur odamlar, gavdalari

juda barvasta, ular asiri tushganlarida ham o'limdan sira qo'rqlaydilar, o'lim oldidan ashula aytib, o'z xursandchiliklарini bayon qiladilar", degan fikrlarni bayon qiladi.

Jang marshlarining ohangi odatda jangovar va ko'tarinki bo'lgan. Musiqa askarlarda mardlik, qat'iyat va jangga shaylik tuyg'ularini uyg'otishga qaratilgan. Bunday marshlar jasorat, g'alaba, shon-shuhurat va sadoqat haqida bo'lib, qo'shinlar o'rtasida birlik va qat'iyat tuyg'usini uyg'otishga, ularni jismonan va ruhiy jihatdan jangga tayyorlashga xizmat qilgan.

Bu qo'shiqlar barqaror ritmnini saqlashdan tashqari, aloqa vositasini ta'minlashda ham asqatgan. Buyruqlar yoki signallarning qo'shiq matniga kiritilishi, shu orqali shaxsiy tarkibga yashirin ma'lumotlar uzatilishi taktik jihatdan ta'minlangan.

Turk xoqonligida ham jangovar marshlar qo'biz, do'mbirka kabi asboblar, an'anaviy cholq'ularda ijro etilgan. Xoqonlik jangovar qo'shiqlari ko'pincha improvizatsiyaga asoslanib, jangchilarning jasorati, qo'yilgan talab va maqsadlarga ko'ra o'zgarib turgan. Marshlardagi ushbu o'zgaruvchanlik qo'shin yuragida shiddat va olov yoqa olgan.

Vaqt o'tishi bilan jangovar marshlarning ohangi va ritmi o'zgaruvchan taktika, qurolyarog' va urush uslublariga moslashib, ritm, ohang va motivatsion ta'sirning assosiy elementlarini saqlab qolgan.

Umuman olganda, jangovar marshlar harbiy yurishlar paytida askarlarning ruhiy holatini ko'tarish, harakatlarni birlashtirish va jasorat ko'satishtiga ilhomlantirish uchun strategik jihatdan yaratilgan kuchli musiqliy kompozitsiyalar edi.

Amir Temur davriga kelib madhiyalar she'riyat bilan chambarchas bog'langaniga guvoh bo'lamiz. Temuriylar davrida yashagan Jomiy va ko'plab taniqli ulamolar jahongashta sarkardanining harbiy yurishlari va g'abalalarini tarannum etuvchi she'rlar yaratdilar. Eng muhimi ular saroy va

ommaviy bayramlardagi chiqishlarda, harbiy yurishlar chog'ida musiqaga solinib, kuylangan.

Bobur davrida jangchilarni sharaflash, qo'shinga o'zgacha ilhom berish ishlari san'at darajasiga ko'tarilgan edi. "Boburnoma"da yozilishicha, sarkardaning yuksak nutqlari jangchilar tilida qo'shiq kabi tez yoyilar edi.

– ...Tangri taolo bunday saodatni bizga nasib qilibdi va bunday davlatni bizga yaqin aylabdi. O'Igan – shahid, o'ldirgan – g'oziy. Barchangiz Tangrining kalomi nomi bilan bu urushdan hech kim yuz o'girishni xayoliga keltirmasligi va to tanasidan joni chiqmagunicha, bu jang va urushdan chiqib ketmasligini aytib, ont ichmog'ingiz kerak.

Shu asnoda barcha bek va navkarlar muqaddas Qur'oni qo'liga olib, yuqorida aytigan jumlalarni takrorlagancha, qasam ichishgan. Bunday yig'inlar odatda barchanining ko'z o'ngida bo'lib, yaqin-yiroqdagi do'st-u dushmanning yuragiqa qo'rquv va hadik sola olar edi.

Bugungi kunda ham madhiyalar matnida ozodlik, birdamlik, tinchlik, g'oliblik, taraqqiyot kabi g'oyalalar ifodalanib, xalqning orzu-umidlari, millatning kelajakka bo'lgan maqsadlari aks etadi.

Madhimizdag'i "Serquyosh hur o'lkam, elga baxt, najot", "Ajdodlar mardona ruhi senga yor" kabi ko'plab misralarida ham anglaganiningdeq ozodlik va hurriyat mazmuni bilan sug'orilgan Vatan, otabolarmizning tunganmas jasoratlariga ishoralar bor.

Markazi Osiyodagi har bir davlatning madhiyasi o'z xalqining kurashlari va g'alabalarini aks ettiruvchi o'ziga xos tarixini o'zida mujassam etgan. Jumladan, Qozog'iston madhiyasida mamlakatning tabiyi go'zalligi va mustahkamligini tarannum etilsa, Tojikiston madhiyasida xalqning mustaqillik va birdamlik uchun kurashi, Turkmaniston madhiyasida esa mamlakat erishgan yutuqlar va taraqqiyot, O'zbekiston madhiyasida esa mamlakatning boy tarixi va turli xalqlarining birdam va hamjihatligi madh etiladi.

Kapitan Bobur ELMURODOV,
"Vatanparvar"

SANA

FAROVON HAYOT ASOSI

Namangan harbiy prokuraturasi tomonidan Konstitutsiyamiz qabul qilinganligining 31 yilligiga bag'ishlab "Konstitutsiya – xalqchil davlat, barqaror taraqqiyot va farovon hayot asosi!" shiori ostida bayram tadbiri o'tkazildi.



Uychi tumani "Gulzor" mahalla fuqarolar yig'indida o'tgan tadbirda dastlab harbiy orkestr va 39-sonli maktab o'quvchilari ishtirokida jonli ijro etilgan madhiyamiz sadolari ostida davlatimiz bayrog'i ko'tarildi.

Harbiy xizmatchilar va yoshlar tomonidan turli ko'rgazmali chiqishlar namoyish etildi.

So'ngra harbiy orkestr, viloyatning mudofaa ishlari, Milliy gvardiya, favqulodda vaziyatlar boshqarmalari va "Vatanparvar" tashkiloti maxsus texnikalari ishtirokida mahalla aholisi bilan "Besh ming qadam" ommaviy yurish tadbiri amalga oshirildi.

Tadbirlar maktab o'quvchilari va mahallada istiqomat qiluvchi fuqarolarga yanada hamjihatlik ruhi va chinakam bayram kayfiyatini baxsh etdi.

**Adliya polkovnigi
Davlatiyor RAHMONOV,
Namangan harbiy prokurori**

MILLAT TAFAKKURI AKS ETGAN HUJJAT

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi xalqimizning xohish-irodasi, huquq va manfaatlarini o'zida ifoda etgan, milliy hamda umuminsoniy qadriyatlар mujassamlashtirilgan qomusdir. Davlat va jamiyat rivojlanishining muhim yo'nalishlarini va ularning tuzilishlarini belgilab beradigan, tartibga keltiradigan O'zbekiston Konstitutsiyasi jahondagi yirik siyosatshunoslar, ekspertlar tomonidan xalqaro me'yorlarga to'la javob beradigan mukammal hujjat sifatida tan olingan.

O'tgan yillarda davomida Asosiy qonunimizda belgilab berilgan qoida hamda tamoyillar negizida samarali milliy qonunchilik tizimi, davlat holimiyati va boshqaruv organlari, fuqarolik jamiyat instituti shakllanib, hayotimizning barcha soha hamda tarmoqlarida keng ko'lami islohotlar amalga oshirildi. Davlatning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va harbiy salohiyati yuksalib, O'zbekiston dunyo hamjamiyatida o'zining munosib o'rniiga ega bo'ldi.

Dunyoning 97 ta mamlakati konstitutsiyaviy tajribasini hisobga olib yaratilgan O'zbekiston Konstitutsiyasi o'tgan davrda ikki marotaba xalq muhokamasida yurtdoshlarimiz xohish-irodasi bilan boyitilan. Umumxalq muhokamasida 6 mingdan ortiq taklif va mulohazalar bildirilgan.

Bugun Asosiy qonunimiz yaratilishining murakkab va sharaflı yo'liga nazar solar ekanimiz, O'zbekiston Konstitutsiyasi ko'z o'ngimizda xalqimizning mustaqillik sari uzoq yo'ldagi izlanishlari natijasi o'laroq namoyon bo'ldi. Ishonch bilan aytish mumkinki, Qomusimiz qadimgi Xorazm va Sug'diyona, Qoraxoniylar, Xorazmshohlar, Temuriylar va ma'rifatparvar ajodolarimizning mustaqil davlat haqidagi ko'p asrli orzusini o'zida mujassam etgan.

Shark mamlakatlari davlatchiligi tarixida Amir Temuring "Tuzuklar"i ham ko'p yillard mobaynida Sharq va Osiyo mamlakatlari sivilizatsiyasida o'ziga xos alohida shaklda konstitutsiyaviy hujjat sifatida foydalilanigan. Shuning uchun ham "Tuzuklar"ni Markazi Osiyo mintaqasi xalqlari taqdirdiga kuchli ta'sir o'tkazgan asarlardan biri sifatida e'tirof etishimiz mumkin.

Konstitutsiyamiz o'zining insonparvarligi bilan ajralib turadi. Unga ko'ra, voyaga yetmaganlar, mehnatga layoqatsizlar va yolg'iz keksalarining huquqlari davlat himoyasidadir. Davlat va jamiyat yetim va ota-onalarining vasiyligidan mahrum bo'lgan balalarni boqish, tarbiyalash va o'qitishni ta'minlaydi, bolalarga bag'ishlangan xayriya faoliyatlarini rag'battantiradi. Bularning bari mamlakatimiz Konstitutsiyasi mutlaqo xalq uchun ekanligini ko'rsatib turdi.

Konstitutsiyaviy tamoyillar va ularning amalda ta'minlanayotgani tufayli yurtimizda har bir inson o'zini himoyalangan his etadi. Aholining o'z muammo va tashvishlari bilan davlat organlariga murojaat etishi uchun imkoniyatlar yanada kengaydi.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi harbiy huquqning eng muhim manbasi hisoblanib, unda harbiy qurilish sohasini tartibga soluvchi me'yolar belgilangan. Bular mudofaa tashkil qilishga yo'naltirilgan bo'lib, u O'zbekiston Respublikasini bevosita qurolli himoya qilishga qaratilgan tadbirlardan iborat.

Keyingi yillarda davlatimiz rahbarining tashabbusi va ko'rsatmasi hamda Bosh qomusimiz talablariga asosan, Qurolli Kuchlarni tashkil etishda harbiy qurilish sohasiga prinsipial jihatdan yangicha yondashuv ishlab chiqildi. Bu yondashuv

eski, o'z umrini o'tab bo'lgan, bir qolpidagi qarolardan butunlay voz kechish, ehtimol tutilgan harbiy harakatlar teatri hamda yaqin va uzoq yon-atrofimizda shiddat bilan o'zgarib borayotgan vaziyatning o'ziga xos xususiyatlarini har tomonlama hisobga olish, shuningdek xorij davlatlarining tajriba va yutuqlarini amalij jihatdan puxta o'zlashtirishga asoslandi.

Mamlakat xavfsizligi va tinchligi bilan bog'iq barcha vazifalar – milliy armiyamizning salohiyati va jangovar qobiliyatini yanada yuksaltirish bo'yicha tizimli ishlar asosan mudofaa sohasidagi qonunchilik bazasi, qo'shin guruuhlarining jangovar tarkibi, tashkiliy tuzilmasi, harbiy kadrlarni tayyorlash va ularning safini to'ldirish samaradorligini oshirish choralar ko'rilmoxda. Shuningdek, qo'shinharni zamonaviy qurol-yarog' va texnika bilan qurollantirish hamda ularni har tomonlama ta'minlash masalalarini yaxshilashga yo'naltirilgan aniq choratdirlar qabul qilinmoqda.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, Qurolli Kuchlarimizning tobora o'zgarib borayotgan qiyofasi mudofaa va harbiy qurilish sohasidagi siyosatni amalga oshirish va rivojlantirishga jamoat birlashmalarini jaib qilish, harbiy kasb nufuzini oshirish, harbiy kadrlarni tayyorlashda ta'lim va tarbiya jarayonini takomillashtirishga qaratilgan o'zimizga xos yo'lin asosi, albatta Bosh qomusimizdir.

So'ng so'z o'rnda shuni aytish mumkinki, Vatanimiz kabi bayrog'imiz ham, gerbimiz ham, madhiyamiz ham va shu qatorda Konstitutsiyamiz ham yagonadir.

**Polkovnik
Obid GAYIBNAZAROV,
Qurolli Kuchlar akademiyasi
markaz boshlig'i, dotsent**

✓ "O'ZBEKISTON – 2030" STRATEGIYASI

HARBIY XAVFSIZLIKNI TA'MINLASHNING KONSEPTUAL ASOSLARI

Global va mintaqaviy xavfsizlik muammosi bugungi kunda jahon miqyosidagi eng yirik muammolardan biri bo'lib qolmoqda. Xavfsizlik tarmog'i islohotlari – izchil jarayon. Markazi Osiyo mintaqasi ham xavfsizlik muammolaridan xoli hudud emas, albatta. Shuning uchun ham Yangi Renessans poydevorini qurishda ildam odimlab borayotgan mamlakatimizda Prezidentimiz rahbarligida O'zbekistonning jahon hamjamiyatidagi o'rmini yanada yuksaltirish borasida tinchlik, barqarorlik va insonparvarlik tamoyillariga tayangan holda harbiy xavfsizlikni ta'minlash masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi farmoni bilan kuchga kiritilgan "O'zbekiston – 2030" strategiyasi bugungi kunda amalga oshirilayotgan keng ko'lami islohotlarning poydevor bo'lib xizmat qilmoqda. Ushbu farmonda davlatimiz taraqqiyoti, fuqarolarimizni ijtimoiy qo'llab-quvvatlashdan tortib, barcha sohalarda amalga oshirilishi kerak bo'lgan islohotlar aniq belgilab berilgan. Shuningdek, xalqimizning erkin va farovon, qudratli Yangi O'zbekistonni barpo etish bo'yicha xohish-irodasini ro'yobga chiqarish, har bir fuqaroga o'z salohiyatini rivojlantirish uchun barcha imkoniyatlarni yaratish, sog'lom, bilimli va ma'nnaviy barkamol avlodni tarbiyalash, global ishlab chiqarishning muhim bo'g'iniiga aylangan kuchli iqtisodiyotni shakllantirish, adolat, qonun ustuvorligi, xavfsizlik va barqarorlikni kafolatli ta'minlashga qaratilgan asosiy g'oyalar quyidagilardir:

• barqaror iqtisodiy o'sish orqali daromadi o'rtachadan yuqori bo'lgan davlatlar qatoridan o'rinn olish;

- aholi talablariga va xalqaro standartlarga to'liq javob beradigan ta'lim, tibbiyat va ijtimoiy himoya tizimini tashkil qilish;

- aholi uchun qulay ekologik sharoitlarni yaratish;

- xalq xizmatidagi adolatli va zamonaviy davlatni barpo etish;

- mamlakatning suvereniteti va xavfsizligini kafolatli ta'minlash.

"O'zbekiston – 2030" strategiyasining "Xavfsiz va tinchliksevar davlat" tamoyiliga asoslangan siyosatni izchil davom ettirish, deb nomlangan V bobning 2-bo'limida mamlakatimiz xavfsizligi va mudofaa salohiyatini kuchaytirish bo'yicha aniq vazifalar yoritilgan. Strategyaning mazkur bobi 97-bandida "Jahonda sodir bo'layotgan murakkab global jarayonlarni inobatga oylan holda Qurolli Kuchlarning qudrati, mamlakatning mudofaa qobiliyati va harbiy salohiyatini yanada oshirish"ga alohida urg' berilgan.

Darhaqiqat, dunyoda globalizatsiya jarayoni kuchaygan, jahon miqyosida

raqobat, o'zaro qarama-qarshilik tobora avj olayotgan, radikalizm, terrorizm, ekstremizm, prozelitizm va ommaviy madaniyat kabi tahdidlar kengayib borayotgan hozirgi zamonda doim ogoh va hushyor bo'lib yashashimiz kerak. Bu borada mamlakatimiz qudratini va mudofaa qobiliyatini oshirish borasida ko'p maqsadli qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Bunga birgina misol tariqasida Mudofaa vazirligi qo'shinchilarini boshqarish va qo'llash uslublari yangilanayotgani, ularning eng yangi rusumdagи zamonaviy qurolaslalshalar bilan ta'minlanayotganligini aytib o'tish mumkin.

Islohotlар jarayonida Qurolli Kuchlarning raqamli salohiyatini oshirish va axborot xavfsizligini ta'minlash, harbiy xizmatchilarining zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanan borasidagi bilim va ko'nikmalarini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bugungi kunda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari dunyoda kuzatilayotgan qurolli to'qnashuvlarda muhim o'r'in tutayotgani hech kimga sir emas.

Shunday ekan kelajak urushlarining ehtimoliy ssenariyalarini e'tiborga olgan holda harbiy xizmatchilarining jangovar tayyorgarligini yanada oshirish maqsadida ushbu texnologiyalardan samarali foydalanan bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlarni yanada kuchaytirish zarur. O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi shaxsiy tarkibining jangovar ruhi va salohiyatini yuksaltirish, zamonaviy jang va harbiy mojarolar hamda xorij armiyalarining ilg'or tajribasini o'rganish asosida qo'shincharning jangovar shayligi va mahoratini rivojlantirish bosh maqsadlarimizdan biri bo'lmog'i lozim.

Davlatimiz rahbarining "O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari harbiy xizmatchilarining ma'nnaviy-ma'rifiy saviyasini oshirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida"gi qarori qabul qilinib, bu hujjat asosida joriy etilgan Qurolli Kuchlar tizimida ma'nnaviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish konsepsiysiga muvofiq, "Vatan – muqaddas, uni himoya qilish sharafli burch!" g'oyasi ilgari surildi.

"O'zbekiston – 2030" strategiyasida Qurolli Kuchlar kuch tuzilmalari bilan hamkorlikni kuchaytirish, birlgiligidagi harakatlarning samaradorligi va muvoqiflashganlik darajasini oshirish vazifalari alohida ahamiyat kasb etadi. Eng oly maqsadimiz davlatimiz daxilsizligini, fuqarolarimiz xavfsizligini ta'minlash ekan, mamlakatimizning barcha kuch tuzilmalari ushbu vazifani yakdil tushunib, bu vazifani uyushqoqlikda bajarish uchun hamkorlikdagi taktik o'quvlarni muntazam o'tkazib kelmoqda. Har qanday mamlakatning kelajagi undagi mavjud kadrlarning ilmiy salohiyati va darajasiga qarab belgilanarekan, yuqori malakali harbiy kadrlarni tayyorlash tizimini muntazam takomillashtirib borish, o'quv jarayonlariga harbiy tayyorgarlikning zamonaviy usullarini keng joriy etish choralar ko'rilmoxda.

Turli davlatlarning armiyalarida harbiy kadrlar tayyorlash tizimi asosan ta'lim oluvchilarda axloqiy-ruhiy, harbiy-kasbiy sifatlarni shakllantirishga, shaxsiy tarkibni o'qitish va tarbiyalash uslublarini o'rgatishga hamda ularda boshqaruvchanlik sifatlarni rivojlantirishga yo'naltirilgan. Bugungi kunda mamlakatimiz Qurolli Kuchlarini malakali harbiy kadrlar bilan butlash bo'yicha bir qancha olyi harbiy ta'lim muassasalari faoliyat yuritib kelmoqda. Ushbu olyi harbiy ta'lim dargohlarida malakali professor-o'qituvchilar tarkibi hamda murabbiylar yosh kadrlarga zamonaviy texnologiyalar asosida bo'lajak ofitser kadrlarni tayyorlab kelmoqdalar.

**Podpolkovnik N. MAXAMATOV,
Qurolli Kuchlar Harbiy
meros va zamonaviy
tadqiqotlar instituti
bosh ilmiy xodimi**

1937-YIL QORA YIL...

Siz 1937-yilni bilasizmi? U qanday yil edi? His qila olasizmi? O'sha yilning ilm ahllari o'rniga o'zingizni qo'yib ko'rganmisiz? Men o'sha yilni qo'rqinchli tushga o'xshataman. Aslida u yillardan uzoqda tug'ildim. Ulg'ayganimda ham u yillar fojiasi sir tutilgan. Yurt mustaqillikka yuz burganidan so'nggina ko'p pinhon tutilgan fojialar oshkor bo'ldi.

O'zimni o'sha davr ayollari o'rniga qo'yib ko'rganman, xayolan ular bilan suhbatlashganman. Vahshiy bir tuzum... Emizikli onani bolasi bilan avaxtaga tiqa olgan tuzum. Qo'rqinch bir davr.

Qishning ilk kuni shunday xabar tarqaldi: "1-dekabr kuni Oliy sudda atoqli o'zbek yozuvchisi Abdulla Qodiriyga nisbatan chiqarilgan O'zbekiston SSR Oliy sudi jinoyat ishlari hay'atining 1926-yil 16-iyundagi hukmi ustidan uning nabirasi Xondamir Qodiriy tomonidan berilgan apellyatsiya shikoyati ochiq sud majlisida ko'rib chiqildi..."

Oradan qariyb yuz yil o'tib, Abdulla Qodiriy oqlandi. Adibimizning ruhlari shod bo'lsin.

Bugun o'quvchilarimizga Ozarbayjonning, turkiy dunyoning katta yozuvchisi Anor asarlarini tavsiya qilamiz. Aslida adib o'zbek o'quvchilariga yaxshi tanish, ko'pdan ko'p asarları o'zbek adabiy tiliga chevirilgan. Yuqorida Qodiriy haqida so'z boshlab, nega Anorni tavsiya qilayotganimizdan hayron bo'layotgandirsiz? Anorning "Oqshomning tongi" hikoyasi o'tgan ulug' ma'rifatchilarimizni yodimga soldi. Bu hikoya ta'siridan chiqmay yurgan kunlarimda Abdulla Qodiriyning oqlanishi haqidagi xabarlar chiqdi. Oradan 97 yil o'tib yuz bergen bu voqeanning nechog'lil ahamiyatlari ekanligini shu birgina hikoya orqali anglatgim keldi.

Taniqli yozuvchi Anor 1938-yili Boku shahrida mashhur shoirlar Rasul Rizo va Nigor Rafibeyli xonadonida tug'ildi. Nigor Rafibeyli she'rlari ona tilimizda "Jahon adabiyoti" jurnalida e'lon qilingan. Demak, bu xonadon ahli bizga begona emas.

"Oqshomning tongi" shunday boshlanadi: "37 yil oqshomi. Bokuning sokin ko'chalaridan biri. Ko'chaning boshida ikkita katta bino bir-biriga qarab turibdi – ikki g'amgin bino. Uylardan sal narida kichkina bog' bor. Suv tuproqqa xuddi ohista singib ketganiday ko'cha ham kunduzgi ovozlarini – shoshilgan qadam, ulovlar tovushlarini o'ziga yutib yuborgan".

Shu oqshom, to'g'riroq'i tunda bir voqeaya yuz berdi. Hamma hushyor edi, bedor edi... ammo sassiz edi.

O'qiyimiz: "Bog', ko'cha, uylar tamomila qorong'ilikka taslim bo'lgan, yolg'iz o'ng qo'lragi to'rt qavatlari uyning bir derazasidan oqshom sari xira nur tushardi.

Hamma uxlagan. Biroq hushyor yotishardi. Oqshom taxminan soat ikkilarda ko'cha sukunati qoq o'tasidan bo'lindi – to'rt qavatlari bino

oldida bir mashina to'xtadi.
Shosha-pisha kelgan va birdan to'xtagan mashinaning qattiq bositgan tormoz ovozi uydagilarning uyqusini pichoq kabi yirtib yubordi.

Hech kim issiq o'rnidan turmadni.
Hech kim balkonga chiqmadi.
Hech kim panjaradan qaramadi.
Yotoqlarida mizg'i yotgan odamlarning barchasi quloqlarini bir nuqtaga yo'naltirishdi".

Qatag'on yillar azobini boshidan kechirgan shoirlar Anna Axmatova "Firoqnomma" dostonida shunday yozgan edi:

"Seni tongda ketdilar olib,
Bir soyadek ergashdim men ham.
Qorong'ida go'daklar qolib,
Erib bitdi cherkovdag'i sham.
But sovug'in saqlardi labing,
Manglaying ter... Unutmas yodim!
Yangrar o'qchi xotini kabi
Kremlning poyida dodim"
"Firoqnomma"da ham o'sha mash'um mashinalar – "Marusa"lar haqida so'z bor. Bugun muzeylardan joy olgan, ammo bir vaqtlar yuraklarga dahshat solgan qora mashinalar.

"Oqshomning tongi" dan **O'qiyimiz:** "Binoning kirish eshigi ochildi. Qadam tovushlari juda yaqindan – Bashirning eshigi oldidan eshitilardi. "Bu kecha kimni olib ketishar ekan-a?", deya o'ylardi Bashir. Qadam tovushlari ularning eshigidan yiroqlashdi".

Bu to'rt qavatlari uyga ikki hafta avval ham shunday mashina kelgan edi. O'shandan keyin 5-xonadonda yashovchi bastakor Farajni hech kim ko'rmadi. Kirish eshigidagi qora lavhachada oq harflar bilan shu binoda istiqomat qiluvchilarning ism-familiyalari yozilgan edi. Undan Farajni nomi o'chirildi. Buni domkom qildi. U barcha "domkom"lar kabi donolarcha fikr yuritardi: "O'zidan o'zi hech kimni olib ketishmaydi. Nimadir aybi bordirda qurmag'urni..."

Uyning sakkiz xonadoni bor. Qorong'i bir tun. Har kimni o'z yog'iga qovurgan bir dahshatlari tun. Shu vahimali tunda g'aroyib bir voqeaya yuz berdi. Nima bo'lganini yozishim mumkin edi. Biroq mutolaa zavqiga putur yetkazish niyatim yo'q. O'zingiz Anorning bu hikoyasini topib o'qishingizga ishonaman. Chunki hikoyadagi tasvirlar Boku shahri uchun emas ulkan sho'ro saltanatinining hamma hududiga xos edi.

O'qiyimiz: "Sakina mashina to'xtaganidanoq uyg'ondi. Nafas olmay tinglay boshladi. Qadam tovushlari ularning xonadoniga yaqinlashishi bilan Sakinaning xayolidan ellik ikki ming fikr o'tdi. "Mayli, bitta xato uchun bunchalikka borishmasa kerak. Axir

Ahmedovdan boshqa hech kim bilmaydi-ku... Ahmedov sotdimikan? Yo'q-yo'q, to'g'ri, u muhim so'z edi, boshqa so'zda adashsamam mayliydi, ammo..."

Shu xato uchun olib ketishlari mumkinmi? Birgina xato uchun kimdir seni sotishi mumkin ekan-da?

Bu uyning 4-xonadonida eski firqachi Qurbon yashaydi.

"Qadam tovushlari Qurbonning eshigi tomon yaqinlashdi".

O'qiyimiz: "So'nggi uch oy davomida u zinapoyaga har kuni ertalab ikkita yangi palto, tish cho'tka va pastasi, uch dona sovun qo'yadigan odat chiqargandi. Do'stlari unga yoshlikdan "vosvossan", deyishardi. Ehtimol... Mashina to'xtashi bilan Qurbon ko'zlarini ochgan, chunki hali uxbab ulgurmagandi. Tinchi buzilgandi oxirgi paytlar.



"Ko'pga kelgan to'y" edi. Quyidagi parchada bu yorqin ifodalangan:
"Har yilda o'ziga xos kunlar bo'ladi, sevinchli, g'amgin kunlar... Ish kunlari, bayram kunlari, motam kunlari..."

Biroq shunday yillar borki, insonlarning xotirasiga faqat birgina rang bilan muhrlanadi.

Biz ma'lumotnomalarimizda tug'ilgan yilimizni 1937-yil deya yozamiz.

Ulg'ayganimizda bildikki, bu qora yil bo'lgan, xalq qalbiga, xotirasiga qo'rquv, intazorlik yili kabi muhrlangan".

Biz yozuvchi Anorning birgina hikoyasi haqida so'z yuritdik. Uning asarlarini turkiy dunyo o'quvchilarini sevib o'qiydilar. Siz ham uning takrorlanmas kitoblariga javoningizdan joy bering. O'qiganingizda esa qalbingizga o'zi yo'l topadi.

Huzurli mutolaalar tilagi bilan

VATANPARVARLIK RUHI VA MA'NAVIY MEROS

Vatanimiz taqdiri yoshlarga ishonib topshirilar ekan, avvalo ular zimmalariga yuklatilayotgan murakkab va mas'uliyatlari vazifani butun mohiyati ila chuqur anglashlari, unga o'zlarini hissalarini qo'shishlari lozim. Zero Vatanni sevish, unga mehr-muhabbat qo'yish bevosita har kimning shu yurt ravnaqi yo'lida amalga oshirayotgan bonyodkorona ishlari bilan belgilanadi.

Harbiy-vatanparvarlik yuksak axloqiylikni namoyon etadigan tuyg'u bo'lib, uning mazmuni Vatanga mehr qo'yish, yurtni himoya qilish, uning xavfsizligi hamda yaxlitligini ta'minlashga bevosita va bilvosita mas'ullik orqali mustahkamlanadi. Shuning uchun ham chinakam harbiy-vatanparvarlik o'zidan oilanai, oiladan Vatanni, Vatandan insoniyatni ustun qo'yishni talab etadi. Muhim jihat shundaki, undagi hissiyorlar tor vatanparvarlik doirasiga sig'maydi, undan "chetga chiqadi". Harbiy-vatanparvarlik faqat Vatanni sevish yoki

yaxshi ko'rish bilan cheklanmaydi, balki bor kuchi va aql-idrokini Vatanni himoya qilish bilan bog'liq muammolarni hal etishga safarbar qilishda namoyon bo'ladi.

Har bir millat taraqqiyotini uning tarixisiz, ma'naviy qadriyatlarisiz va madaniy merosisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch bo'lib, bunday kuchga ega bo'lgan davlat va millatni yengish mumkin emas.

Mustaqillik yillarda xalqimizning nodir va bebabohi tarixiy, ma'naviy va madaniy merosini yoshlar o'tasida keng targ'ib

qilish, ularni asrab-avaylash va muhofaza qilish masalasiga alohida e'tibor berib kelinmoqda. Amur Temur tavalludining 660 yilligi, Imom al-Buxoriy tavalludining 1225 yilligi, Ahmad al-Farg'oniy tavalludining 1200 yilligi, Imom Abu Mansur al-Moturidiy tavalludining 1130 yilligi, Burxoniddin al-Marg'inoniy tavalludining 910 yilligi, Alisher Navoiy tavalludining 560 yilligi, Abdulxoliq G'ijduvoniy tavalluduning 900 yilligi, Xiva, Termiz va Buxoro shahrining 2500 yillik yubileyi, Qarshi shahrining 2700 yilligi, Samarcand shahrining 2750 yilligi, Toshkent shahrining 2200 yilligi, Marg'ilon shahrining 2000 yilligining keng nishonlanganligi fikrimizning dalilidir.

Mamlakatimizda mayjud madaniyat yodgorliklarini qayta tiklash va konservatsiyalashga qaratilgan davlat dasturlari qabul qilinib, ushbu dasturlar asosida mustabid tuzum davrida xarob ahvolga tushib qolgan dunyoga mashhur yodgorliklar ta'mirlanib, kelajak avlodlar uchun saqlab qolindi.

Mustaqillik yillarda tarixiy, ma'naviy va madaniy meros obyektlarini

muhofaza qilish bilan bog'liq munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan huquqiy asoslar yaratildi. Tarixiy, ma'naviy va madaniy meros obyektlarini huquqiy muhofaza qilishda O'zbekiston Respublikasining tegishli qonunlari huquqiy asos sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu huquqiy asoslarga ko'ra, tarixiy, ma'naviy va madaniy meros obyektlari davlat tasarrufidan chiqarilishi, xususiyashtirilishi, ularga xo'jasizlarcha munosabatda bo'lish mumkin emas, tarixiy, ma'naviy va madaniy meros obyektlari chetga olib chiqib ketilishiga yo'l qo'yilmaydi, ular davlat muzeylarida, arxivlarda, kutubxonalarda saqlanadi.

Tarixiy, ma'naviy va madaniy meros obyektlari O'zbekiston xalqining o'chovi yo'q xazinasini va boyligi hisoblanadi. Ushbu boylik nafaqat hozirgi avlodning, balki kelajak avlodning ham mulkidir. Ushbu boy merosni asrab-avaylash, uni yetarli darajada keng targ'ib qilish, yoshlarimizni vatanparvarlik ruhidagi tarbiyalash, ularda tariximizga nisbatan faxr-iftixor, Vatanga bo'lgan muhabbat tuyg'usini shakllantirishga xizmat qiladi. Shu sababdan, tarixiy, ma'naviy va madaniy merosimizdan yoshlarni tarbiyalashda unumli foydalanish bugungi kunning asosiy vazifalaridan biridir.

G. SAMIYEV,
Qurolli Kuchlar akademiyasi
texnik ta'minot kafedrasini dotsenti

MEROS

Mulla Bozor Oxund maqbarasi tarixidan

Namangan shahrining Labbaytoga dahasi Kurashxona mavzeyi Namangansoy sohilida joylashgan Mulla Bozor Oxund yodgorligi majmuasi xalqimizning tabarruk maskanlaridan biridir.

XVII asning yirik mutasavviflaridan biri olim va shayx Mulla Bozor Oxundning to'liq ismi Xoja Ubaydulloh ibn Sultan Muhammad Bobur Qoraxon Mulla Bozor Oxunddir. Ul zot XVI asr oxiri Namangan shahrida tavallud topgan. Boshlang'ich ta'limga uyida, keyingi bosqichni Namangan madrasalarida oлган. Ilimga tashnalik uni Turkistonning ilm-fan markazi bo'lmish Buxoroga olib kelgan. Buxoroda donishmand olim Mirzo Bahodir Buxoriy bilan tanishdi va undan ta'limga oldi. Ustozini pir, o'zini murid hisoblab, uzoq yillar olimming xizmatida yurdi.

Mirzo Bahodirdan irshod xatini (pirning yorlig'ini) olgach, O'rta va Yaqin Sharq mamlakatlari bo'ylab sayohat qildi. Qoshg'arning Xo'tan, Yorkand shaharlari bo'ldi. U yerda Hidoyatulloh Ofoq Xo'ja bilan tanishadi. Namanganga qaytgach, qolgan umrini imomlik va mudarrislikka, kishilarni to'g'ri yo'liga solishdek sharafla, mashaqqatli yumushga sarf etdi. Mulla Bozor Oxund o'z davrining fiqh, hadis, tarix, geografiya, ilmi hisob, faroiz, adabiyot, ruhyatshunoslik va boshqa bilimlarni yaxshi egallagan yirik mutafakkir edi. U turkiy, arabiylar va forsiyda ijod qilgan shoir hamdir. Ul zot otashnafas shoir Boborahim Mashrabga ilk saboq bergen, uning shoir bo'lib yetishishiga katta hissa qo'shgan va uni yagona Alloha e'tiqod, foni dunyo havaslariga ko'ngil qo'ymaslik ruhida tarbiyalagan mehribon ustoz edi. Mulla Bozor Oxund 1668-yil Namanganda vafot etgan.

Mamlakatimiz istiqlolga erishish arafasida, ya'n 1990-yilda mahalliy aholi hashar yo'li bilan Mulla Bozor Oxund majmuasi qurilishini boshlab yubordi. Biroq iqtisodiy tanglik tufayli bu qurilish niyoyasiga yetmay qoldi. Muqaddam bu yerda mayjud bo'lgan madrasa va maqbara XX asning 30-yillarida buzib yuborilgan edi. 1993-yilda me'moriy majmuani qayta tiklash to'g'risida qaror qabul qilindi. O'sha yilning 25-dekabrida majmuuaning asosiy darvoza qismiga qoziq

qoqildi. Qurilish ishlari 1994-yilning 18-mayida tugatildi. Uni Namangan bosh me'mori Abdujabbor Abdug'afforov boshchiligidagi yosh, iqtidorli me'mor Odiljon Qodirov amalga oshirdi. Majmuua qurilishida usta Fozil Namangoniyning farzandi usta Turg'unboy Fozilov hamda usta Ne'matulla Qo'chqorov yetakchiligidagi eng malakali quruvchilar ishtiroy etdilar. Ushbu me'moriy yodgorlik Namangan viloyati hokimining 2006-yil 5-maydag'i 200-sonli qarori bilan mahalliy toifadagi madaniy meros obyekti sifatida davlat muhofazasiga olingan.

Mulla Bozor Oxund yodgorlik majmuasi 3 qismidan iborat:
Asosiy kirish darvozasi pishiq g'ishtdan masjidga kirish joyida qurilgan. Uch gumbazli, o'rtadagi gumbaz kattaroq bo'lib, pastki qismi darvoza uchun mo'ljallangan. Darvozaning ikki tomonida mezana shaklidagi baland qubbador ustunlar joylashgan. Boshqa ikki gumbaz osti 3,5x3,5 metrlar hujralardan iborat. Hujralarning davomi sifatida xonalar qurilgan (9x3,5 metrlar).


Jome masjidning asosiy katta xona, xonaqohi yerto'lali, pishiq g'isht va temir-beton paneldan qurilgan. O'chami 30x24 metr. Sathi 720 kvadrat metr. Uch tomoni ayvon. Ustunlar va peshtoqi milliy bezaklar berib pishiq g'ishtdan tiklangan. O'chami 36x6 metr va 24x6 metr, sathi 576 kvadrat metr. Asosiy darvozadan kirishda qibla tomonda ayvonga tutash holda 16 metrli mezana-minora pishiq g'ishtdan bezakli qilib tiklangan, "Alloh, Muhammad" degan yozuvlari bor. Masjid 3 ming namozxonga mo'ljallangan.

Mulla Bozor Oxund maqbarasida olim dafn etilgan. Asosining o'q chizig'i 6 metr, umumiy balandligi 24 metr. Besh qirrali ko'pburchak shaklida avval 8 metr va keyin yetti qirrali ko'pburchak shaklida prizma qilib qurilgan. Ustiga doira shaklidagi qism va gumbaz barpo etilgan. Maqbara ko'rinishi va tuzilishi islonidagi shariat, tariqat qonunlarini ramziy tarzda ifoda etadi. Maqbaraning dastlabki besh qirrali qismi islonidagi 5 amalni, keyingi 7 qirrali qismi imondagi 7 shartni, doira shaklidagi 40 ta qirra 40 farzni ifodalaydi. Bu qismga "Bismillahir rahmonir rahim, Alloh" deb yozilgan. Maqbara qurilishida pishiq g'isht, temir-beton, sopol koshinlar, yog'och eshik va panjaralardan foydalilanigan.

Inomjon PO'LATOV,
Namangan viloyat tarixi
va madaniyati davlat muzeysi
ilmiy xodimi

HARBIY JURNALISTIKANING TARIXIY ILDIZLARI

Harbiy jurnalistikaning paydo bo'lishi va rivojlanishi haqidagi tadqiqotlar oxirigacha o'rganilmagan mavzu bo'lib, bu borada hali ko'plab ilmiy izlanishlar olib borish zarur. O'zbekistonda harbiy jurnalistika sohasida faqat 2019-yildan mutaxassislarni tayyorlash yo'lg'a qo'yildi.



Harbiy jurnalistikaning ildizi qadim-qadim zamonalarga borib taqaladi. Uni tarixchi olimlar va tadqiqotchilar janglarda sarkardalar yonida yurgan, barcha ko'rgan-kechirganlarini qog'ozga tushirib borgan shaxslar misolda ko'satishadi.

Qadim zamonaldayoq hukmdorlarning urushlardagi o'z zafari natijalarini, jang tafsilotlarini kelgusi avlodlarga yozib qoldirish istagi va bu ishlarni bevosita amalga oshirgan mutaxassislar **harbiy jurnalistikaning** paydo bo'lishiga poydevor qo'yishdi, desak, mubolag'a bo'lmaydi. Vaqt o'tgan sayin barcha sohalar singari u ham o'zgarib, takomillashib bordi.

Rossiyada chop etiladigan "Медиа Тренды" nashrining 2012-yil 9-noyabrdagi sonida shunday yozilgan:

"Fidippidni dunyodagi birinchi harbiy muxbir hisoblashadi. U marafondagi g'alaba xushxabarini aytish uchun Afinagacha bo'lgan 42 kilometrik masofani yugurib o'tib, "afinaliklar, quvoning! Biz g'alaba qozondik", degan hamda vafot etgan". Tarixchi Gerodotning ma'lum qilishicha, Fidippid yunon chopag'on jangchisi bo'lib, forslar ustidan marafon uchun bo'lgan jangda qozonilgan g'alabani xalqiga yetkazish uchun shuncha masofani tezlikda bosib o'tadi.

Ma'lum bo'lishicha, g'alaba haqidagi xabarni yetkazish yunonlarda o'zgacha faxr-iftixon kasb etgan. Demak, xalqiga muhim xabarni yetkazish orqali bu qahramon nafaqat

muxbir, balki ommaviy axborot vositasi vazifasini ham o'tagan. Shu faktga asoslanib, xulosa chiqaradigan bo'lsak, harbiy jurnalistika taxminan 2,5 ming yillik tarixga ega bo'lishi mumkin. Aleksandr Makedonskiy qo'shinida urush tafsilotlarini yozib boradigan maxsus tayyorlangan kishilar bo'lgan. Ular qo'shinda jang borishini, taktika va strategiyasini, qahramonlik ko'satgan bahodirlarni, umuman barcha muhim tafsilotlarni yozib borishgan.

MILLIY HARBIY JURNALISTIKA

Turkiston xalqlari harbiy jurnalistikasining tarixini notiqlik, voizlik, qalandarlik faoliyati rivojlangan davrda o'r ganish mantiqan to'g'ri bo'lishi mumkin. Qolaversa, harbiy jurnalistikani an'anaviy jurnalistikadan ayro tasavvur qilib bo'lmaydi. Shu mantiqqa asoslanadigan bo'lsak, VIII asrga tegishli, hozirgi Mongoliyaning Bain Sokto manzilidan topilgan Tunyuqquq bitiklarini ham harbiy jurnalistikaning ilk yodgorliklari qatoriga kiritish mumkin.

Mazkur bitiklar turk hoqoni Eltarishning sarkardasi Tunyuqqqa bag'ishlanib, 712–716 yillarda bitilgan. Unda lashkarboshi faoliyati, yurt mudofaasi va boshqaruvida tutgan o'rnii hikoya qilinadi.

Insoniyat tarixi – janglar tarixi. Jang-u Jadallar haqida bizgacha yetib kelgan tarixiy manbalarni bevosita muhorabalarni shaxsan kuzatgan insonlar yozib qoldirishgan. Demak, tarixchilar, bitikchilar qaysidir ma'noda harbiy journalist deyishga ma'naviy haqqimiz bor. Qolaversa, buni isbotlaydigan dalillar ham yo'q emas.

SULTON JALOLIDDINNING MUNSHIysi

Shihobiddin Muhammad an-Nasaviyning "Sulton Jaloliddin Manguberdi hayoti tafsiloti" kitobining kirish qismida tarjimon Kamol Matyoqbov shunday yozadi:

"...Asosiy tarixiy manbalardan biri Shihobiddin Muhammad an-Nasaviyning "Sulton Jaloliddin Manguberdi hayoti tafsiloti" asaridir. Shihobiddin an-Nasaviy Xurosonning Nasa shahri yaqinida tug'ilgan. Shu viloyatdagi Xurandiz qal'asining

voliysi bo'lgan. Asarni an-Nasaviy 1241-yilda Jaloliddin o'limidan 10 yil keyin yozishga kirishgan va 1249-yilda vafotidan sal oldin tugatadi. Asarda 1218-yilden 1231-yilgacha Xorazm, Movarounnahr, Xuroson, Hindiston, Eron, Iraq, Ozarbayjon, Gruziya kabi davlatlarda, aniqrog'i, Jaloliddin qo'lstida to'plangan saltanatda bo'lib o'tgan voqealar, xorazmshoh Olovuddin Muhammad va Jaloliddin Manguberdi faoliyatları, Chingiz bosqini dahshatlari haqqoniy tarzda hikoya qilinadi. Undagi voqe-a-hodisalar, ularning ishtirokchilari haqidagi ma'lumotlarning haqqoniyligiga shubha qilmasa ham bo'la. Chunki asar muallifi an-Nasaviy Jaloliddinin munshiysi, shaxsiy kotibi bo'lgan, u bilan birga ko'p masalalarni hal qilishda ishtirok etgan".

Ma'lumki, "munshiy" so'zi arabcha bo'lib, "kotib", "ijodkor" degan ma'noni anglatadi. Xonliklar davrida munshiyalar xonning yoki hokimning yozuv-chizuv ishlarni olib borgan. Demak, urush, jang-u Jadallarda xorazmshoh Jaloliddin Manguberdi bilan yonma-yon yurib, voqealar tafsilotini yozib borgan an-Nasaviy zamona vychasiga aytganda, buyuk sarkardaning matbuot kotibi, harbiy jurnalistidir.

AMIR TEMURNING BAXSHILARI

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutining katta ilmiy xodimi, Yozuvchilar uyushmasi a'zosi marhum G'ulom Karimiy Muiniddin Natanziyining "Muntaxab ut-tavorixi Muiniy" kitobi tarjimasining kirish qismidagi "Muntaxab ut-tavorixi Muiniy" da Amir Temur davri tarixining yoritilishi" sarlavhali materialida qiziq bir ma'lumotni keltirib o'tadi. U bilan tanishib, Sohibqironning bugungi til bilan aytganda mohir harbiy jurnalistlari bo'lgan, degan xulosa kelib chiqadi.

"Amir Temur davrida qat'iy tarzda yo'lg'a qo'yilgan barcha harbiy yurishlar tafsilotlari hamda har bir jangning bayonini o'z vaqtida baxshilar (bitikchilar) tomonidan turkiy tilda uyg'ur yozuvida yozib borish odati keyingi temuriylar davrida ham mavjud bo'lganini Mirzo Muhammad Haydarning "Tarixi Rashidiy" asaridagi bir ma'lumot tasdiqlaydi. Muhammad Haydarning yozishicha, Zahiriddin Muhammad Bobur



Hamza sultonga qarshi jang qilib, g'alaba qozonganida, Jonahmad atka boshchiligidagi Muhammad Haydar mulozimlari jasorat ko'satib, dushmanning bir sarkardasini tirik ushlashadi. Jangdan so'ng Bobur: "Bu – Mirzo Haydarning birinchi ishi, binobarin, baxshilar mukofot daftariga uning nomini yozishsin", deydi.

Baxshilarning vazifasi safar davomida har bir jang yoki boshqa muhim voqealarning tafsiloti hamda jangda ish ko'satganlar nomini darhol, hatto o'sha voqealarning yuz bergan joyning o'zida qog'ozga tushirish bo'lgan.

Ikkita buyuk sarkardamiz faoliyati bilan bog'liq mazkur misollar ham harbiy jurnalistika bida qadimdan shakllanganini isbotlaydi. Xabarnavis, baxshi, bitikchi, munshiy va yana qandyadir boshqa nomlarda atashgan bo'lismasini, ularning vazifasi bugungi OAV xodimi bajarayotgan vazifaga mohiyatan yaqindir.

BOBUR VA HUMOYUNNING "HARBIY JURNALISTLARI"

Muallif G'ofurjon Sotimov "Boburiyzodalar" risolasida "Tarixi Rashidiy" kitobining muallifi Mirzo Muhammad Haydar haqida shunday ma'lumot beradi: "Mirzo Haydar erta yoshdanoq Bobur xizmatiga kirgan bo'lib, uning atrofida bo'lib o'tgan juda ko'p voqealarning guvohi bo'lgan. U Boburning hayoti davomidagi kurashlarni o'z ko'zi bilan ko'rgan, Humoyunning Shershoh Sur bilan bo'lgan janglarining guvohi bo'lgan, Humoyun qo'shinida una qarshi Bilgram (Kanuj)dagi jangda qatnashgan. "Tarixi Rashidiy" asarini u 1546-yilda yakunlagan".

Boburning yonida bo'lgan, jang-u Jadallarga guvoh bo'lgan, u haqdagi qimmatli ma'lumotlarni yozib qoldirgan Mirzo Muhammad Haydarning faoliyati ham harbiy jurnalistika tarixidan so'zlaydi.

G'ofurjon Sotimov taniqli tarixchi Xondamirning forsiyida bitilgan "Xabibus-siyar" asari haqida fikr bildirib, shunday yozadi: "Xabibus-siyar"da asosan Boburning hukmronligi davri lavhalari va ayniqsa uning 1529-yilda afg'on xonlariga qarshi olib borgan janglar tafsiloti mufassal yoritib berilgan. Humoyunning dastlabki o'n yil davomidagi hukmdorlik faoliyati ham shu asarda mufassal yoritib berilgan. Xondamir o'sha davr voqealarining bevosita ishtirokchisi va guvohi bo'lganligi

uchun uning hikoyalarini haqqonji deb qarash mumkin". Shundan ham bilih mumkinki, Xondamir janglarni kuzatgan, ularning ishtirokchisi bo'lgan va asarida aks etirgan. Uning faoliyatida ham harbiy jurnalistikaga xos jihatlarni kuzatish mumkin.

ABDULLAXONNING SHAXSIY VOQEANAVISI

"Abdullahoma" yoki "Sharafnomayi shoshiy" asarining muallifi Hofiz Tanish Buxoriy 1584-yilda Abdullaxonnинг amaldorlaridan bira Qulbobo Ko'kaldoshning tavsiysi bilan hukmdor xizmatiga shaxsiy voqeavanis, tarixchi bo'lib o'tadi. Asarning o'sha davr ijtimoiy-siyosiy hayoti haqida eng muhim va ishonchli manba ekanligi voqeavanisning xon yonida yurib, ma'lumot to'plagani bilan ham xarakterlanadi.

Xullas, podsholar, sarkardalar, qo'shin boshliqlari yonida yurib, ma'lumot to'plagan bitikchi, baxshi, voqeavanis, tarixchilarining faoliyati yurtimizdagи harbiy jurnalistikaning dastlabki ko'rinishlaridir. Ularni tadqiq etish yangi O'zbekiston harbiy jurnalistikasi istiqbolidagi muhim vazifalardan.

DUNYO MAMLAKATLARI HARBIY JURNALISTIKASI

Harbiy mavzuni, urushni yoritgan, sohaga ixtisoslashgan dastlabki bosma nashrlar haqida gap ketganda Britaniyaning ilk gazetasi "Weekly News"ni tilga olish mumkin. Ingliz tarixchisi F. Montegyuning yozishicha, gazetanining 1621-yilda dunyo yuzini ko'rishiga 30 yillik urush (1618–1648 y) sababdир. Gazeta Fransiya bilan bo'lgan urush haqida fuqarolariga ma'lumot berib turgan.

Fransiyada Teofrasta Renodo tahriri ostida chop etilgan "La Gazette" (1762-yilda "Gazette de France" deb nomlangan) nashrining asoschisi kardinal de Rishelye bo'lib, unda Lyudovik XIII o'zining harbiy qahramonliklarini yozdirib borgan. Mazkur nashr ham harbiy jurnalistikaning bosma shakldagi namunalari sirasidan.

Fransuz matbuoti bo'yicha bir qator tarixchilarining yozishicha, Napoleon Bonapartning harbiy qudratida gazetanining roli muhim ahamiyat kasb etgan. Fransuz imperatori bejiz mana bu mashhur iborani aytmagan: "Dushmanlik ruhi bilan sug'origan to'rtta gazeta ochiq maydondagdi 100 ming qo'shinden ko'ra ko'proq talafot yetkazishi mumkin".

Mutaxassislar Nikolay Bergani Rossiyaning dastlabki harbiy muxbir hisoblaydi. Muallif 1855-yilda "Moskvityanin" jurnaliga Qirim urushi janggohlarida kechayotgan jarayonlar xususida maqola yozadi. Ekspertlar bu safga Lev Tolstoyni ham kiritishadi. Harbiy reportajlar an'anasiga Rossiyada yozuvchi Lev Tolstoy asos solgan, deyishadi. Ya'ni 1855-yil iyunidan boshlab Qirim urushi davrida yozuvchi reportajlar yozgan.

**Yoshin HAKIMOV,
O'ZJOKU o'qituvchisi**

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 31 yilligi mamlakatimiz bo'ylab keng nishonlanmoqda. Sana munosabati bilan Davlat xavfsizlik xizmati Chegara qo'shinlariga qarashli bo'linmalarda yangi harbiy shaharchalarning foydalanishga topshirilishi ham bayramga munosib tuhfa bo'ldi.



Xususan, Toshkent viloyati Yangiyo'l tumanining qo'shni Qozog'iston Respublikasi bilan chegaradosh hududlarini qo'riqlayotgan harbiy xizmatchilar va ularning oila a'zolari uchun barcha qulayliklarga ega, zamonaviy ko'rinishdagi yangi Chegarani qo'riqlash vazovi ma'muriy binosi hamda xizmat xonadonlarining ochilish marosimi an'anaga ko'ra, karnay-surnay sadolari ostida boshlandi.

Tadbirda viloyat hokimligi, Chegara qo'shinlar mas'ul ofitserlari, faxriylar, tumandagi "Umid" mahalla fuqarolar yig'ini vakillari hamda yoshlar ishtirok etdi. Marosimda so'z organlar tinchlikning eng oliy ne'mat ekanligi, uni asrab-avaylash nafaqat harbiylar, balki har bir shaxsning fuqarolik burchi bo'lmog'i zarurligini ta'kidlab, bugun davlatimiz rahbarining tashabbusi bilan milliy armiyamizni yanada rivojlanishiga, uning jangovar salohiyatini yuksaltirib, yurt himoyachilarining xizmat va turmush sharoitlarini har jihatdan yaxshilashga qaratilayotgan yuksak e'tibor xususida to'xtalib o'tdilar.

Harbiy shaharchaning ramziy kaliti vazvod komandiriga tantanali tarzda topshirilgach, sarhadlarimiz posbonlari mazkur hududda barpo etilgan xizmat xonadonlarining kalitlarini katta quvong bilan qabul qilib oldilar.

Shundan so'ng majmuadagi sharoitlar bilan yaqindan tanishgan mehmonlar, bu yerda Davlat chegarasi qo'riqlovini samarali tashkil etish barobarida, harbiy xizmatchilarning kasbiy malakasini oshirish, ma'naviy-ma'rifiy hamda jismoniy tayyorgarliklarini tashkil etish, shuningdek madaniy hordiq chiqarishlarini ta'minlab, salomatliklarini mustahkamlash uchun ham barcha qulayliklar yaratilganiga guvoh bo'ldilar.

— Quvonarlisi, bu yerda yurt himoyachilarining turmush o'rtoqlari va farzandlari uchun shinam, yorug', issiq uy-joylar, bolalar maydonchalari, qandolat va tikuv sexlari, xullas, bexavotir yashashlari uchun hamma



imkoniyat bor. Chegarachi o'g'llarim va kelinlarim bundan oqilona foydalanib, shukronalik hissi bilan ahil yashasalar, hamisha oila deb atalmish qo'rg'onnинг mustahkamligini ta'minlashga harakat qilsalar shuning o'zi kifoya, — deydi Chegara qo'shinlari Faxriylar kengashi raisi iste'fodagi polkovnik Xayrulla Sagdullayev.

Ana shunday ko'tarinki kayfiyat va bayram shukuhi viloyatning Toshkent tumani "Qushqo'ndi" mahalla fuqarolar yig'inida joylashgan harbiy bo'linmada ham davom etib, namunaviy loyiha asosida qurib bitkazilgan chegarani qo'riqlash vazovi foydalanishga topshirildi.

Unda ishtirok etgan viloyat hokimligi vakillari, harbiylar,

faxriylar, shuningdek hududdagi umumta'lum maktablarining "Yosh chegarachilar" klubi a'zolari bugun jonajon yurtimizda inson qadri ulug'lanib, uning baxtli hayot kechirishi va sevgan kasbi bilan shug'ullanishi uchun barcha qulayliklar yaratilayotgan bir paytda, o'z burchini matonat bilan o'tayotgan harbiylarning oilasi ham doimiy diqqat-e'tiborda ekanini ta'kidladilar.

Har ikki bo'linmada ham ochilish marosimiga bag'ishlangan tadbirlar davomida vazvod hududida yangi bunyod etilgan futbol maydonchalarida chegaraoldi yoshlari uchun sport musobaqlari tashkil etilib, g'oliblar esdalik sovg'alari bilan taqqidirlandi.

Xulosa o'nida qayd etish kerakki, sarhadlarimiz posbonlarining xizmat va turmush sharoitlarini bosqichma-bosqich yaxshilab borish davlat siyosati darajasiga ko'tarilib, ularning ijtimoiy himoyasi bekam-u ko'st ta'minlanar ekan, yurt himoyachilar yangi marralar sari olg'a qadam tashlayveradilar.

Mayor Farida BOBOJONOVA
DXX Chegara qo'shinlari



YONG'IN XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH – DOLZARB MASALA

Mamlakatimizda so'nggi yillarda favqulodda vaziyatlarning oldini olish, yong'in xavfsizligini ta'minlash, fuqarolarimizning hayotini va moddiy boyliklarini tilsiz yovdan himoya qilish hamda asrab-avaylash borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirildi.

Mamlakatimizda 2023-yilning 15-noyabrdan 15-dekabr kuniga qadar "Yong'in xavfsizligi oyligi" e'lon qilinib, oylik doirasida Favqulodda vaziyatlari vazirligi tizimida bir qator profilaktik tadbirlar o'tkazilib kelinmoqda.

Favqulodda vaziyatlari vazirligi akademiyasida "Yong'in xavfsizligi oyligi" doirasida "Aholi turarjoylari, jamaot binolari va sanoat obyektlari xavfsizligini ta'minlashning dolzarb masalari: muammo va yechimlar" mavzusida respublika ilmiy-amaliy anjumani o'tkazildi.

Anjumanda qator vazirlik, qo'mita va tashkilotlar mas'ullari, Yoshlar ishlari agentligining faol yoshlari, universitet va institut professor-o'qituvchilar va talabalari, Favqulodda vaziyatlari vazirligi akademiyasi harbiy xizmatchilar, kursantlar, keng jamaatchilik hamda OAV vakillari ishtirok etdi.

Anjumandan ko'zlangan asosiy maqsad – respublikamizda qish mavsumi oldidan yong'inlarning oldini olish va yong'in xavfsizligini ta'minlash chora-tadbirlarini yanada kuchaytirishga qaratilgan "Yong'in xavfsizligi oyligini" yuqori saviyada o'tkazish hamda is gazidan zaharlanishning oldini olish va uning oqibatlarini bartaraf etish, mavjud muammolar, ularning yechimi va yong'inga qarshi muhofazani takomillashtirish, o'zaro hamkorlikni yaxshilash, tajriba almashish, o'tkazilgan muhokama natijalarini kelgusida o'quv jarayoniga tatbiq qilish, shuningdek kursantlar va tinglovchilarni ilmiy-tadqiqot ishlari keng jaib etish bilan bir qatorda, yong'in xavfsizligi sohasida olib borilayotgan islohotlarni jamaatchilikka targ'ib qilish hamda talaba va kursantlarning

nazariy, amaliy bilim va ko'nikmalarini yanada oshirishdan iborat.

Anjumannee akademiya boshlig'i general-major Ravshan Haydarov kirish so'zi bilan oshib, mamlakatimizda o'sib kelayotgan yosh avlod vakillari uchun keng imkoniyatlar yaratilayotgani, bu borada favqulodda vaziyatlarni oldini olish va bartaraf qilish sohasi uchun ham yuksak ma'nnaviyatlari, vatanparvar, innovatsion va kreativ fikrlaydigan zamonaviy kadrlar tayyorlash masalasiga ham alohida e'tibor qaratilayotgani, shuningdek so'nggi yillarda aholi hayoti va sog'lig'i, jismoniy va yuridik shaxslar mulkining ishonchli himoyasini ta'minlaydigan yaxlit tizim shakllantirilganligini alohida ta'kidladi.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, respublikamizda 2022-yilda jami 10 260 ta yong'in hodisasi yuz berib, unda 284 nafar fuqaro jabrlangan, shundan 107 nafari vafot etgan, shuningdek jismoniy va yuridik shaxslarga 214.6 mldr so'mlik zarar yetkazilgan.

2023-yilning o'tgan 10 oyi mobaynida esa jami 8 293 ta yong'in sodir bo'lgan bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 44 taga ko'pdir. Yong'inlar natijasida 56 nafar inson halok bo'lgan bo'lsa, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 18 taga kamayganini, jarohat olganlar esa 135 nafarni tashkil etlib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 16 taga kamayganini ko'rishimiz mumkin.

Yuqori saviyada o'tkazilgan ilmiy-amaliy anjumanda so'zga chiqqanlar, soha xodimlari tomonidan sodir bo'lishi mumkin bo'lgan favqulodda vaziyatlarning oldini

oshish va yong'in xavfsizligini ta'minlash sohalariagi mavjud muammolarini tahlil qilib, ularni bartaraf etish, yo'l qo'ymaslik davlatlararo hamkorlikni mustahkamlash, xalqaro hamda milliy doiralarda tegishli chora-tadbirlarini amalga oshirish bilan bir qatorda, olimlar va soha mutaxassislarini o'ttasida aynan qish mavsumida ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlari, barcha turdag'i ta'lim muassasalarini hamda aholi ko'p yig'iladigan maskarlarda favqulodda vaziyatlari va yong'in xavfsizligini ta'minlash borasidagi muhim masalalar bilan birga yong'inga qarshi muhofaza tizimidagi yangicha zamonaviy yondashuvlar va sohaga oid ilm-fan yutuqlari xususida fikr-mulohazalar bildirdilar.

Anjuman doirasida ishtirokchilar asosiy va maxsus yong'in-qutqaruv texnikalari, kuch va vositalarning imkoniyatlari bilan tanishirildi, akademiya faoliyati hamda yong'in xavfsizligi qoidalari to'g'risidagi videolavhalar namoyish etildi, shuningdek yosh olimlar, professor-o'qituvchilar va iqtidorli talabalar (*kursantlar*) tomonidan yaratilgan ixtiolar, innovatsion ishlanmalarining namoyishi hamda yetakchi nashriyotlar tomonidan kitob yarmarkasi tashkil etildi.

Yakunda faol ishtirok etgan professor-o'qituvchilar, taklif etilgan mehmonlar, tadqiqotchilar, iqtidorli talaba va kursantlarga akademiya boshlig'i tomonidan tashakkurnoma va sertifikatlar topshirildi.

**Mayor Farhodjon XOJAYEV,
akademiya katta o'qituvchisi**

✓ OCHIQ ESHIKLAR KUNI

ICHKI ISHLAR TIZIMIDAGI ISLOHOT VA ISTIQBOLLAR



Keyingi yillarda ichki ishlar organlari yurtimizda tinchlik va osoyishtalikni, fuqarolar xavfsizligi va jamaat tartibini saqlashda ishonchli tizimga aylandi. Viloyatimiz ichki ishlar idoralalarining sa'y-harakatlari zamirida aholi uchun mehnat sharoitida yaratilayotgan islohotlarda, shahar va tumanlarning xavfsizligini ta'minlashda ham keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoxda.

Keyingi yillarda ichki ishlar boshqarmasi va Jamoatchilik kengashi a'zolari hamda viloyatning bir guruh jurnalistlari, ommaviy axborot vositalari vakillari, blogerlar ishtirokida 8-dekabr – O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 31-yilligi hamda 9-dekabr Xalqaro korrupsiyaga qarshi kurash kuni munosabati bilan ochiq eshilarni tashkil qilindi.

Bugungi kunda viloyat ichki ishlar boshqarmasida olib borilayotgan islohotlari zamirida aholining turmush farovonligini ta'minlashda idoralalarimiz astoydi xizmat qilib kelmoqda, – deydi jurnalistlar bilan muloqotda viloyat IIB Ma'naviy va ma'rifiy ishlari, kadrlar bilan ta'minlash xizmati boshlig'i o'rnbosari Ulug'bek Nazarov. – Boshqarma binosida "102" xizmati tashkil etilgan bo'lib, u 24 saat to'xtovsiz ish faoliyatini olib bormoqda. Aholining telefon xabarlarini o'z vaqtida nazoratga olinib, tegishli bo'limlarga tezkor xabar yetkazilgan holda, murojaatlar bo'yicha ish olib borilmoqda. Maqsadimiz har bir oilaning tinchligini ta'minlashdan iborat.

Ma'lumki, tizim faoliyati tubdan takomillashtirilib, aholi bilan yanada ochiqlikni ta'minlash, murojaatlarni tun-u kun qabul qilish va sodir bo'lgan voqealarni joyida va o'z vaqtida



hai etishni ta'minlash hamda jamaat joylari, xiyobonlarda xavfsizlikni nazorat ostiga olib borasidagi ishlarida ichki ishlar organlarining xizmati beqiyosdir.

Jurnalistlar boshqarma binosidagi navbatchilik qismining vaziyatlari markazida olib boriladigan ishlar bilan ham yaqindan tanishdilar.

– Vaziyatlari markazimizda shahar va uning hududiga kiruvchi barcha yo'llarda o'rnatilgan nazorat kameralarining tun-u kun nazoratini ta'minlash ishlari tashkil qilingan, – deydi viloyat IIB tezkor boshqaruv markazi boshlig'i Atham Irisqulov.

– Raqamlarga keladigan bo'lsak, shahrimiz hududida bugungi kunda 900 dan ortiq kamera o'rnatilgan. Shahar hududining belgilangan joylarida 360 gradusga aylanadigan kameralar ham mavjud bo'lib, markazimiz xodimlari tomonidan ularning nazorat kuchaytirish, tumanlardagi jarayonlarni ham to'liq tasvirga olish imkoniy mavjud. Kameralarning yana bir qulayligi shundaki, qidiruvda bo'lgan shaxslarni topishga ham yordam bermoqda. Bundan tashqari, aholi gavjum joylarda tezkor chaqiruv "102" knopkalari ham o'rnatilgan, fuqarolarimizda to'g'ridan to'g'ri markaz xodimlariga ularib, o'z muammosi yuzasidan xabar qilish imkoniy mavjud.

Ichki ishlar organlari sohasida jamaat joylardagi vaziyatni onlaysiz kuzatish, fuqarolarning murojaatlarini masofadan turib

qabul qilish, huquqbazarliklarni inson omili ishtirokisiz qayd etish amaliyoti muhim ahamiyat kasb etmoqda.

– Prezidentimizning 2022-yil 8-fevraldag'i "Ichki ishlar organlarining ekspert-kriminalistika faoliyatini zamonaviy ilm-fan yutuqlarini keng joriy etgan holda yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori yuzasidan viloyat ichki ishlar boshqarmasining ekspert-kriminalistika markazida ham keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoxda, – deydi viloyat IIB ekspert-kriminalistika markazi katta eksperti kapitan Sardor Muhibdinov. – Ta'kidlash joizki, IIV ekspert-kriminalistika bosh markazi bilan hamkorlik dasturi doirasida viloyat markazida barcha qulayliklarga ega bo'lgan zamonaviy "Volkswagen Crafter" rusumli kriminalistik laboratoriysi ajratildi. Ushbu laboratoriymiz sodir etilgan jinoylarning issiq izidan aniqlash borasidagi imkoniyatlarimizni kengaytirdi. Jumladan, markazimizda shaxslarni biometrik identifikasiya qilish ishlari ham yo'iga qo'yilgan. Jinoyat sodir qilgan shaxsni barmoq izlari va boshqa ko'rinishdagilari yordamida aniqlash imkoniy yaratildi.

Bir so'z bilan aytganda, bugun biz jurnalistlar ichki ishlar organlari faoliyati bilan yaqindan tanishib, bu yerda tizim faoliyatini takomillashtirish, aholi osoyishtaligini ta'minlash hamda korrupsiyaga qarshi kurash samaradorligini oshirish, sodir bo'lishi mumkin bo'lgan jinoylarning barvaqt oldini olishga alohida ahamiyat qaratilayotganining guvohi bo'ldik.

**Dilafruz XALIOVA,
Navoiy viloyati "Muqaddas burch"
gazetasi bosh muharriri**

MEHR DUNYONI ASRAYDI

Millatimizning ulug' qadriyatlaridan biri mehr-oqibat va mehr-muruvvatdir. Yolg'iz keksalar, boquvchisini yo'qtgan oilalar, salomatligiga putur yetgan ijtimoiy himoyaga muhtoj nogiron insonlar hamisha davlatimiz va xalqimiz e'tiborida. Ularga har tomonlama ma'naviy va ruhiy, moddiy va tibbiy yordam ko'satilayotganiga guvohmiz. Albatta, bu g'amxo'rlik dili o'ksik insonlarga ruhan tayanch bo'ladi, kayfiyatini ko'taradi, yashashga va o'ziga bo'lgan ishonchni oshiradi.



Havo hujumidan mudofaa qo'shnilar va Harbiy havo kuchlari qo'mondonligining tarbiyaviy va mafkuraviy ishlar boshqarmasi tomonidan amalga oshirilgan mana shunday ezgu harakat yuzga yaqin bolalar va ularning yaqinlarini shodumon qildi. Ya'ni qo'mondonlik vakillari sovg'a-salomlar ila Respublika bolalar ortopediya markaziga tashrif buyurdi.

Harbiy xizmatchilarning tashrifi dili o'ksik o'g'il-qizlar va ularning yaqinlarini mamnun etganiga guvoh bo'ldik. Buning asosiy sabablaridan biri, nafaqat bolalarga sovg'a-salomlar berildi, balki bayram davrasini tashkil etildi. Qo'mondonlikning tarbiyaviy va mafkuraviy ishlar boshqarmasi

boshlig'i o'rribbosari podpolkovnik Botir Qo'ziyev bolakaylarning tezroq shifo topib, sog'lom ulg'ayib, jamiyatda o'z o'rinnarini topishlari uchun ezgu tilaklar bildirdi. Qurolli Kuchlar xizmatchisi suxandon va xonanda Mirzohid Hojiakbarov tomonidan yangragan kuy-qo'shiqlar raqslarga ulandi.

Bayram davrasiga qatnasha olmagan bolakaylarga qo'mondonlikning xotin-qizlar va harbiy xizmatchilarning oila a'zolari bilan ishlash bo'yicha yetakchi mutaxassisni Hilola Tursumatova, kichik serjantlar Dilnoza Sulaymonova va Shoxruh Toshmurodov xonalarga kirib sovg'alar topshirishdi.

– Ertaga tug'ilgan kunim, o'n besh yoshqa to'laman, – deydi e'tibordan ko'zlar chaqnab turgan Umidjon Quronboyev. – Bu g'amxo'rlik tug'ilgan kunimga katta sovg'a bo'ldi...

Bayramona tadbir so'ngida markaz rahbariyati nomidan ortoped shifokor Sharifaxon Alimova hamda bosh hamshira Mahmuda Mirzayeva Havo hujumidan mudofaa qo'shnilar va Harbiy havo kuchlari qo'mondonligiga o'z minnatdorliklarini bildirishdi.

Kunning ikkinchi yarmida qo'mondonlik vakillari kichik serjant Alisher Ernazarov xonadonida bo'lib, kasallikka chalingan ayoli Gulzoda Ernazarovaning holidan xabar olishdi.

Shuningdek, ular bir qator harbiy oilalarda bo'lib, bemor farzandlarining ko'nglini ko'tarishdi. Xususan, mayor Ulug'bek Eshmuroidovning farzandi Firdavs, serjant Murod Jabborovning qizi Nozimaxon, II darajali serjant Sarvar Yuldashevning qizi O'g'ilchaxon, III darajali serjant Muslim Qahhorovning o'g'li Muboshir, kichik serjant Abrorjon Mamasoliyevning farzandi Ominaxon, II darajali serjant Farhod Xodjievning qizi Armonaga ham sovg'a-salomlar olib borishdi.

Ha, mehr dunyoni asraydi, deyishadi. Qo'mondonlik tomonidan ko'satilgan mehr-muruvvat qancha dili o'ksik insonlarning qalbiga nur bag'ishlaganiga shubha yo'q.

SAXOVAT

"YAXSHI INSONLAR OMON BO'L SIN!"

Fazilatxon qizalog'i Imonani shifoxonada olib yotganiga bir hafta bo'lyapti. Bolasi tug'ma falajlik bilan dunyoga kelgan. Yetti yosh bo'lsa-da, bir joyda yotadi, gapirmaydi. Harqalay bir qo'l va bir oyog'i ishlaydi, televizor tomosha qilishni yoqtiradi, multfilm ko'rib xursand bo'lganida qandaydir tovushlar chiqarib kuladi. Ona uchun shu ham katta baxt. Axir Imona yolg'izgina dilbandi, hayotining mazmuni.

Eri qizining nogiron tug'ilganligini bilgach, Fazilatxonidan uni nogironlar uyiga topshirishni talab qildi. Maqsadiga yetmagach, ona-boladan voz kechdi. Allaqaqchan uylanib, bola-chaqali bo'lib ketgan bag'ritosh erkak, ulardan biror marta xabar olmaydi. Yetti yildirki, onaizor bir o'zi bolasining dardi bilan kurashadi, uning tuzalishiga umid bog'laydi.

Keksa ota-onasining oldida yashayotgan juvon ko'p qiyinchilikni boshidan o'tkazdi. Bemor bolaga qarashning o'zi bo'lmaydi, har qadamda dori-darmon va yotib davolanishga to'g'ri keladi. Buning uchun moddiy ta'minot juda zarur. Qo'lida kasbi yo'q ayol qayerga bosh urib borsin. Ishlagan taqdirda ham bolasiga kim qaraydi, qari ota-onasi ham qarova muhtoj bo'lsa. Umidsiz, najotsiz qolgan bir pallada unga mehr-muruvvat eshiklari ochildi...

Bolasiga termilib tunni bedor o'tkazgan Fazilatxon, tongda turib,

deraza darpardalarini ochdi. Quyosh nuri xonani nurafshon etdi. Bugun Imonaning kayfiyati yaxshi, harakatida ham o'zgarish bordekk, go'yo. "Hozir yuz-qo'lingni yuvib, ovqatlantiraman", – qiziga jilmayib boqqi onaizor. – Keyin muolajalarining olasan. Xudo xohlasa, yaxshi bo'lib ketasan, qizim..."

– Mumkinmi, kirsak bo'ladi? – tushga yaqin ona-boladan xabar olgani shifokor boshchiligidagi Respublika harbiy prokurorining katta yordamchisi adliya mayori Gulchehra Tursanova hamda Samarqand harbiy prokurori o'rribbosari adliya mayori Farrux Fatullayev sovg'a-salomlar bilan tashrif buyurishdi.

– Kelinglar, aziz mehmonlar! – shoshib qoldi Fazilatxon. – Ovora bo'lib...

– Ovorasini bormi, opajon! – g'amg'usor onani tinchlantirdi Farrux.

– Imona bizning ham qizimiz, uning oyoqqa turishiga barchamiz mas'ulmiz.

– To'g'ri, – uning fikrini tasdiqladi Gulchehra, – qizimizning ahvoli qanday? – davolovchi shifokorga yuzlandi u.

– Bemor qizimiz bolalar serebral falaji bilan dunyoga kelgan. Samarqand viloyati Bolalar ko'ptarmoqli tibbiyot markazi nevrologiya bo'limi mudiri, oliy toifali shifokor Dilnozaxon Sobirova Imona haqida ma'lumot berishga kirishdi. – Uning miya faoliyati yaxshi ishlaydi...

Mehmonlar kelganini sezib, kayfiyati ko'tarilgan qizaloqqa e'tibor beraman. U atrofidagilarga minnatdor qiyofada boqar, tilini aylantirib nimalardir deyishga harakat qilardi. Ha, mehr-oqibat tuyg'usi shu mittigina qizaloq ko'ksida ham mujassam.

– Samarcand harbiy prokururasi yaqinida yashaymiz, – deydi Fazilatxon O'rriboyeva qizalog'i haqida so'z yuritar ekan. – Ruhiy va moddiy tomonдан og'ir holatga tushib qoldim. Qizim va ota-onamdan tez-tez xabar olgan holda ishshamiz zarur edi. Albatta, ko'plab ishxonalarda buning iloji bo'lmadi.

Bilasizmi, mana shu dargoh go'yoki meni hayotga qaytardi. Farrosh qilib ishga olishdi. Adliya polkovnigi Odiljon O'sarov va uning boshchiligidagi harbiy prokururating barcha xodimlari sharoitimni tushungan holda mehr-muruvvat qo'lini cho'zishdi. Har tomonlama yordam ko'satib kelishmoqda. Ularni doim duo qilaman...

Shifoxonadan qaytar ekanmiz, Fazilatxon opa mehmonlar ortidan duo qilib qoldi: "Bizga mehr ko'satganlardan Allohim mehrini ayamasin, yaxshi insonlar hamisha omon bo'lsin!"

Адаптация вновь призванных военнослужащих по контракту

В Вооруженных Силах одним из видов военной службы является служба по контракту. В данном виде военной службы лица, поступившие на действительную военную службу, заключают контракт с государством и проходят службу в соответствии с законами Республики Узбекистан «О всеобщей воинской обязанности и военной службе» и «О службе в резерве Вооруженных Сил Республики Узбекистан».

Успешное выполнение учебно-боевых задач зависит от сплоченности коллектива и взаимопонимания между командирами и подчиненными. Если вновь прибывший военнослужащий испытывает трудности с адаптацией в воинском коллективе, то происходит срыв при выполнении учебно-боевой задачи. В связи с этим, требуется оказание помощи в адаптации молодых военнослужащих к учебной и повседневной деятельности.

Что такое адаптация? Это перестройка психики индивида под воздействием объективных факторов окружающей среды, а также способность человека приспособливаться к различным требованиям среды, без ощущения внутреннего дискомфорта и без конфликта со средой.

Изменение личностных качеств, необходимых для адекватного включения человека в новые социальные ситуации и новые формы деятельности не часто становится объектом изучения психологии. В то же время, ввойской практике наработан целый ряд психолого-педагогических процедур и технологий, обеспечивающих включение человека в новое для него мотивационное и смысловое пространство деятельности, способствующих адекватному личностному включению индивида в иную социальную ситуацию, например, такую, как закрепление вновь призванного на военную службу по контракту за более опытными военнослужащими.

Продолжительность адаптационного периода (первоначальная) при заключении контракта на военную службу по контракту в среднем составляет 4-6 месяцев. Вторичная адаптация должна проводиться в течение одного месяца.

Проблема социально-психологической адаптации молодых военнослужащих по контракту приобретает особую важность. Ведь



они перемещаются из одной психологической среды в другую, все это придает адаптации молодых военнослужащих по контракту особую остроту, а часто и болезненный, конфликтный характер.

Личностные и общественные издержки от неудавшейся адаптации этой категории военнослужащих порой рассматриваются в качестве психологических причин негативных явлений в армейской среде. Всегда это не только несостоявшийся профессионал, но и первый кандидат в группу риска.

Основную роль в адаптации молодого военнослужащего играет компетентность командиров, офицеров органов воспитательной и идеологической работы, наставников и сослуживцев, повышающая возможности целенаправленного и эффективного влияния на умонастроения и деятельность вновь призванных военнослужащих в самый сложный и трудный для них период адаптации и профессионального становления.

Знание и правильный учет психологических особенностей адаптации молодых военнослужащих по контракту способствуют повышению их общественной активности, укреплению воинской дисциплины, сплочению и развитию коллектива, эффективному выполнению поставленных задач.

Однако психологические особенности адаптации вновь при-

званных военнослужащих по контракту к служебной деятельности учитываются далеко не всеми командирами, офицерами органов воспитательной и идеологической работы, порой они не обладают необходимыми психолого-педагогическими знаниями. Им нужны психологически обоснованные методические рекомендации и советы.

Психологическое изучение проблемы адаптации позволяет перейти к разработке психолого-педагогических технологий, обеспечивающих направленное изменение личностных качеств индивида.

Период адаптации к службе, новым условиям жизни, новым отношениям имеет важное значение. Именно в этот период службы происходит максимальное количество несчастных случаев. Поэтому следует внимательно относиться к жалобам и заявлениям молодых военнослужащих, своевременно реагировать на них, знать психологические особенности своих подчиненных, хорошо разбираться в мотивах их поступков, не допускать фактов унижения их чести и достоинства, решительно пресекать случаи глумлений и издевательств, искривления дисциплинарной практики. Важную роль как в период адаптации к военной службе, так и в последующем играют переписка и встречи с родными и близкими.

Для раннего выявления военнослужащих с признаками суицидального поведения особое значение имеет тщательное их обследование войсковыми врачами и психологами, а также знание о состоянии здоровья родителей и ближайших родственников подчиненных.

Каждому командиру подразделения немаловажно знать, кто стал для молодого военнослужащего по контракту гласным или негласным наставником, каков круг его сегодняшних друзей. И не только знать, но и не упускать из-под своего влияния управление

процессами адаптации военнослужащего.

Процесс адаптации военнослужащих стимулирует определенные психологические изменения у субъекта, а новый статус, полученный при прохождении воинской службы, является и социальным, и психологическим.

Основу профилактической работы составляет индивидуальная целенаправленная беседа, во время которой одновременно ведется наблюдение за обследуемым. Она проводится по специальному плану, в котором определены темы для обсуждения и сформулированы примерные вопросы, задаваемые в ходе беседы. План дополняется перечнем неблагоприятных признаков, которые могут быть выявлены в процессе беседы и наблюдения за поведением военнослужащего.

В результате беседы и наблюдения фиксируются и оцениваются те признаки в поведении молодых военнослужащих, которые можно охарактеризовать как неблагоприятные: дефекты речи, моторики, слабое физическое развитие и т.д. Выявляются лица с повышенной раздражительностью, впечатлительностью, легкомысленностью суждений, робостью, застенчивостью, выраженным чувством собственной неполноценности, преувеличением своих недостатков, принятием успехов и достоинств, крайне болезненным реагированием на грубость и бес tactность, легкостью развития аффектов, неспособностью защищать себя.

Адаптация считается успешной, если военнослужащий усвоил профессиональные базовые знания, навыки и умения, принят колlettivom, овладевает ценностями и традициями военной службы в воинской части и данного воинского подразделения.

Сухробхужа СУЛАЙМАНОВ,
магистрант факультета
психологии филиала МГУ
имени М.В. Ломоносова
в Ташкенте


MA'NAVIYAT

YAXSHILIK YO'LIDA DASTIM UZUN BO'LSA...

Kitob o'qiydigan
insonlarning suhbatlari
ham qiziq. Ular bilan
gaplashib, zerikmaysiz.
Kapitan Ulug'bek
Xatamov shularning biri.

U Farg'onada davlat
universitetining chaqiruvga
qadar boshlang'ich harbiy ta'limg
fakultetida tahlis olgan ekan.
Eshitib, avvaliga hayron bo'dim.
Chunki universitetda o'qiy olgan
inson uchun oliy harbiy ta'limg
muassasasida o'qish ham
muammo emas. Meni hayron
qoldirgan narsa, nega maktabni
emas, harbiy hayotni tanlagani
edi. Baribir maktab bilan armiya
o'tasida keskin farq edi.

Bu haqida uning o'zi shularni
gapirib berdi:
– Universitetni bitirganidan
so'ng Quvasoy shahridagi
12-umumta'limg maktabida biroz
muddat ishladim. Ba'zan inson
yaxshi joylarda, yaxshi ishlarda
ishlasa-da, o'zidan qoniqmaydi.
Menda ham shunday bo'ldi.



Negadir qilayotgan ishimdan
qoniqmas edim, bu ish men uchun
emasdek, go'yo. Maktabni bitirib,
universitetga o'qishga kirdim.
Hatto muddatlari harbiy xizmatni
o'taganim yo'q. O'qish davomida
harbiy hayotni ham o'rgandik.
Ammo... O'quvchilarimga armiyada
bo'lmay turib, armiya hayoti haqida
gapireshga o'zimni haqli emasdik
his qillardim. Amakilarim, dadam
qaynoq nuqtalarda kechgan armiya
hayotini ba'zida xotirlab qolar edilar.

Shunday paytlarda "men ularga
munosib izdosh bo'lolmayapman"
degan o'y xayolimni band qilardi.
Harakatga tushdim. Qarorimni
dadam qo'llab-quvvatladi. Ko'rib
turganingizdek, Qurolli Kuchlar
safidaman. Yillar tez kechyapti.
To'g'ri, harbiy xizmat oson emas.
Ammo bu yo'lni sevib tanladim.
Shu sababli uncha-muncha
murakkabliklari pisand emas. Sevib
tanlagen kasbning qiyinchiliklari
ham bilinmaydi.

bilib ulg'aysinlar. Oilaviy sayohatlar
shunisi bilan ahamiyatlari.

Yuqorida kitobsevarlik haqida
bejiz to'xtalmadim. Aslida ham
eng avvalo, e'tiborimni tortgan
jihat ofitsersning kitoblarga bo'lgan
ayricha mehri bo'ldi. Bunday
mehrni kaminangizdek kitob
targ'ibotchisi e'tibordan chetda
qoldirishi mumkinmi?

– Shaxsiy kutubxonam bor.
Uni nodir kitoblar bilan to'ldirgim
keladi. Bu biroz qiyin albatta.
Hozircha o'zim yoqtirganlarimni
to'playapman.

– Kitoblarining orasida Siz eng
qadrilaydiganlari bormi? – deb savol
berdim Ulug'bekka.

– Bor, tabiiy. Shihobiddin

Muhammad an-Nasaviyning
"Sulton Jaloliddin Manguberdi
hayoti tafsiloti" asari. Bu juda
yaxshi asar, yoshlarga tavsiya
qilaman. Milliy g'ururni uyg'otadigan
asar. Yana biri Mirzo Ulug'bekning
"To'rt ulus tarixi" asari. Yana biri...

Uni tinglayapman-u, bu
kitoblarining menda yo'qligi
xayolimdan o'tyapti. Shuning uchun
suhbat mavzusini orzular tomoniga
burdim, eng katta orzular tomoniga.

– Dasti uzun inson bo'lsam...
Yaxshilik qilish yo'lida qo'lim har
yerga yetsa, tinimsiz yaxshilik
qilsam!

Inobat IBROHIMOVA,
"Vatanparvar"

O'tgan noyabr oyida mamlakatimiz sportchilari yengil atletika, taekvondo, dzyudo, qilichbozlik, boks, qo'l jangi, karate kabi bir qator sport turlari bo'yicha xalqaro musobaqlarda qatnashib, 89 ta oltin, 62 ta kumush va 71 ta bronza, jami 222 ta medalni qo'lga kiritishdi. Mudofaa vazirligi Oliy sport natijalarini rivojlantirish markazi (MVSM) vakillaridan yengil atletikachi Shohruh Davlatov, taekvondochi Ulug'bek Rashitov hamda Svetlana Osipova esa kelgusi yili Parij shahrida o'tadigan XXXI yozgi Olimpiada o'yinlari yo'llanmasiga ham ega bo'ldi.



"PARIJ - 2024"

SARI ODIMLAR

TAEKVONDO

Yurtimiz taekvondochilar noyabr oyidagi xalqaro musobaqlarda asosiy e'tiborni "Parij - 2024" yozgi Olimpiya o'yinlarida ishtirok etish maqsadida reyting ochkolari yig'ishga qaratishdi. Bu intilish qaysidir ma'noda o'zini oqladi. Xususan, lordaniyaning Amman shahrida taekvondo WT bo'yicha "G2" tasnidagi "Butunjahon taekvondo federatsiyasi prezidenti kubogi" musobaqasida MVSM vakillaridan Jasurbek Jaysunov (-74 kg) hamda Nikita Rafalovich (-87 kg) kumush, Svetlana Osipova (+73 kg) bronza, terma jamoamiz a'zolaridan Shuhrat Salayev (-80 kg) va Feruza Sodiqova (-62 kg) bronza medalni qo'lga kiritib, reyting ochkolarini ham boyitdi.

O'tgan hafta yetakchi taekvondochilarimiz Angliyaning Manchester shahrida o'tkazilgan taekvondo WT bo'yicha yakuniy Gran-pri musobaqasida qatnashishdi. Unda o'z vazn toifalarida dunyoning eng kuchli 16 nafar sportchisi ishtirok etdi. Turnir G10 toifasiga kirib, g'olib sportchi 100 reyting ochkosiga ega bo'lardi. Afsuski, bu nufuzli turnirda O'zbekiston terma jamoasi a'zolarining omadi chopmadi. Jumladan, MVSM vakili Ulug'bek Rashitov (-68 kg) mashg'ulotlar chog'iда kichik jarohat olgani bois murabbiylar shtabi uning janglarda ishtirok etmasligini ma'lum qildi. "Tumanli Albion"ga borgan terma jamoamizning boshqa a'zolari Feruza Sodiqova (-67 kg), Svetlana Osipova (+67 kg, MVSM), Shuhrat Salayev (-80 kg) va Nikita Rafalovich (+80 kg, MVSM) esa o'zlarini xohlagandek jang qilolmadi. Yakunda shohsupaga ko'tarilmagan bo'lsa-da, ayrimlari qimmatli reyting ochkolariga egalik qildi.

Butunjahon taekvondo assotsiatsiyasi 3-dekabr kuni yangilangan reytingni e'lon qildi. E'tiborlisi, ushbu reyting yakuniga ko'ra, kuchli beshlikka kirgan sportchilarga "Parij - 2024" yozgi Olimpiya o'yinlari uchun litsenziyalar taqdim etildi. Unga muvofiq, ayni kunda reytinginda o'z vaznida 1-o'rinni egallab turgan MVSM vakili Ulug'bek Rashitov (-68 kg) kelgusi yili Parij shahrida o'tadigan XXXI yozgi Olimpiada o'yinlari yo'llanmasiga ega bo'ldi. Shuningdek, reytingda 7-o'rindan joy olgan MVSM vakili Svetlana Osipovaga



(+67 kg) ham "Parij - 2024" yo'llanmasi taqdim etildi. Chunki ushbu vaznida ikki nafr Turkiya, ikki nafr Britaniya vakili yuqori pog'onada bo'lgani uchun Osipova beshinchini litsenziya sohibasiga aylandi. Ma'lumot uchun, Olimpiadada bitta vazn toifasida bir mamlakatdan bir nafr sportchi ishtirok etishi mumkinligi belgilangan.

Qayd etish lozim, o'zbekistonlik taekvondochilarida hali 2023-yilning yakuniy, ya'ni Xitoydagi "Katta dubulg'a" musobaqasi, shuningdek 2024-yilgi Osiyo yo'llanmasi turnirlarida Parij Olimpiadasi uchun litsenziyalar qo'lga kiritish imkoniyati mavjud. Taekvondochilarimizdan Nikita Rafalovich (6-o'r'in, MVSM), Feruza Sodiqova (13-o'r'in), Shuhrat Salayev (15-o'r'in) va Jasurbek Jaysunov (18-o'r'in, MVSM) reyting jadvalida yuqori pog'onalardan joy olgan.

PARA TAEKVONDO

Para taekvondo bo'yicha terma jamoamiz a'zolari ham Angliyaning Manchester shahrida o'tkazilgan jahon para taekvondo Gran-prisining final turnirida ishtirok etdi. "Parij - 2024" yozgi Paralimpiya o'yinlariga muhim reyting ochkolarini taqdim etadigan ushbu musobaqada 3 nafr vakilimiz sovrindorlar safidan joy oldi. Ayollar o'ttasida Guljanoy Naimova o'z vazn toifasida oltin medalga sazovor bo'ldi. Erkaklar o'ttasida esa Javohir Aliqulov kumush, Asad Toshtemirov bronza medalni qo'lga kiritdi.

YENGIL ATLETIKA

Poyoniga yetib borayotgan bu yilgi mavsum musobaqalarini yengil atletikachilarimiz muvaffaqiyatlari yakunlamoqda. Jumladan, Tailandning Bangkok shahri mezbonlik qilgan Osiyo championatida 4 nafr atletimiz shohsupaga ko'tarilgan bo'lsa, Xitoyning Xanchjou shahrida kechgan "kichik Olimpiada", ya'ni XIX yozgi Osiyo o'yinlarini yengil atletika bo'yicha O'zbekiston terma jamoasi 2 ta oltin, 2 ta kumush va bitta bronza, jami 5 ta medal jamg'arish bilan yakunladi. Ushbu muvaffaqiyatlarga armiyamiz sportchilarini munosib ulush qo'shishdi. Ta'kidlash joiz, yengil atletika bo'yicha mamlakatimiz sportchilarining xalqaro maydondag'i yutuqlariga MVSM vakillari doim o'z hissasini qo'shishgan va bundan o'tgan hafta oxirida Ispaniyada o'tkazilgan marafon ham mustasno bo'lmadi.

Yengil atletika bo'yicha O'zbekiston terma jamoasi safidan joy olgan Mudofaa vazirligi Oliy sport natijalarini rivojlantirish markazi vakili Shohruh Davlatov Ispaniyada o'tgan nufuzli "Valencia Marathon Trinidad Alfonso" musobaqasida qatnashib, ajoyib muvaffaqiyatga erishdi. Yarim marafon bo'yicha milliy rekord sohibi hisoblangan MVSM vakili Ispaniyadagi musobaqaning

42 km, 195 metr marafon dasturida qatnashib, "Parij - 2024" yozgi Olimpiya o'yinlari normativini bajarishga muvaffaq bo'ldi. Davlatov mazkur turnirda 2 soat, 7 daqiqa, 2 soniya natija qayd etdi. Bu "Parij - 2024" yozgi Olimpiadasi uchun qo'yilgan talabdan 1 daqiqa, 8 soniya yaxshiroq natijadir. Shuningdek, Shohruh ushbu ko'rsatkich bilan 38 yil avval o'rnatalgan milliy rekordni (2:13:28) ham yangilashga muvaffaq bo'ldi. Surxondaryolik atletimiz ushbu muvaffaqiyatga erishish uchun so'nggi ikki yil ichida bir necha oy dunyoning eng kuchli marafonchilar yetishib chiqqan Keniyada o'quv-mashg'ulot yig'inarida ishtirok etdi. Intilish o'z samarasini berdi, Olimpiada yo'llanmasiga ega bo'ldi.


OG'IR ATLETIKA

Shu kunlarda Qatar poytaxti Doxa shahrida og'ir atletika bo'yicha Gran-pri musobaqasi bo'lib o'tmoqda. "Parij - 2024" yozgi Olimpiya o'yinlari uchun qimmatli reyting ochkolari o'ynaladigan mazkur musobaqada O'zbekiston terma jamoasi ham ishtirok etyapti. Terma jamoamiz tarkibidan armiyamiz atletlari ham o'r'in olgan. Musobaqa 14-dekabrga qadar davom etadi. Mamlakat og'ir atletika federatsiyasining ma'lum qilishicha, ushbu turnirda 6 nafar sportchimiz qatnashyapti.

Turnirdan avval Xalqaro og'ir atletika federatsiyasi Ijroiya qo'mitasining yig'ilishi bo'lib o'tdi. Unda yaqin vaqt ichida o'tadigan yirik musobaqalarga mezbon davlatlar belgilab olindi. Ahamiyatlisi, Toshkent shahri yoshlar o'ttasidagi og'ir atletika bo'yicha 2025-yilgi jahon championati mezbonligini qo'lga kiritdi. Qayd etish joiz, 2018-yil ham yoshlar o'ttasidagi jahon championati poytaxtimizga ishonib topshirilgan va musobaqa yuqori savyada o'tkazilgan edi. 2026-yilga belgilangan kattalar o'ttasidagi dunyo birinchiligi esa Xitoyning Ningbo shahrida o'tadigan bo'ldi. Ma'lumot uchun, kattalar o'ttasidagi jahon championati 2024-yil Bahrayn, 2025-yil Norvegiyada tashkil etiladi.

Mamlakatimiz, jumladan MVSM sportchilarining "Parij - 2024" yozgi Olimpiya o'yinlari sari odimlari shu tariqa davom etmoqda. Noyabr oyida sportchilarimiz "Parij - 2024"ga intilish yo'lida turli xalqaro musobaqlarning 89 ta oltin, 62 ta kumush, 71 ta bronza, jami 222 ta medaliga sazovor bo'lishdi. Yurtimiz sportchilarining XXXI yozgi Olimpiada o'yinlari uchun bugungacha qo'lga kiritgan yo'llanmalari soni esa 17 tani tashkil etmoqda. O'z navbatida, o'smir hamda yosh sportchilarimiz aka-opalarini g'oliblik sari ruhan qo'llab-quvvatlashda davom etishyapti. Xususan, 4 dekabr kuni Turkiyaning Antalya shahrida qilichbozlikning sablya yo'nalishi bo'yicha yoshlar o'ttasidagi jahon kubogining navbatdag'i bosqichi O'zbekiston terma jamoasi uchun ajoyib yakunlandi. Jamoaviy dasturdagi bellashuvlarda qizlarimiz ham, yigitlarimiz ham dunyoning kuchli jamaolarini mag'lub etib, oltin medalni qo'lga kiritishdi. Armaniston poytaxti Yerevan shahrida o'smir bokschilar o'ttasida poyoniga yetgan jahon championatida esa vakillarimiz 4 ta oltin, 3 ta kumush, 4 ta bronza, jami 11 ta medalga ega chiqishdi.

RUHIY JAROHATLAR SHAFQATSIZLIKKA SABAB BO'LADI



Yaqinda ijtimoiy tarmoqlarda bir ayolning o'z qizlarini ayovsiz kaltaklayotgani va eri ularni boqishni istamas ekan, o'ldirib yuborishini aytib, tahdid qilayotgani tasvirlangan video tarqaldi. Aybi nimaligini tushunmayotgan, qarshilik qilishga ojiz norasidalarning jiqqa yosh va qo'rquv to'la ko'zları butun jamoatchilikni oyoqqa qalqitdi. Shu sabab bo'lib, ayolga qarshi jinoyat ishi qo'zg'atildi, ammo onasidan bir umrlik psixik travma olgan bolalarning keyingi taqdiri kishini o'ylantiradi.

Umuman, so'nggi vaqtarda bunday holatlarning tez-tez takrorlanayotganining o'zi xavotirli. Chunki bunday shafqatsizliklar bolalarda keyinchalik turli ruhiy buzilishlar kuzatilishiha, jamiyatda nosog'lom muhit ko'payishiga olib kelishi mumkin.

Astini olganda, odatiy qiyin vaziyatlarni boshdan kechirish, ular bilan kurashishni o'rganish bola hayotining ajralmas qismi hisoblanadi. Biroq yuzaga kelgan shikastli voqeiklardan qocholmaslik yoki ularni nazorat qilmaslik tufayli chuqur his qilingan qo'rquv kichkinaldasi butun umrlik ruhiy jarohat qoldirishi mumkin. Ko'pincha bu hol bola jismoniy xavf ostida bo'lganida, uyda, jamiyatda tajovuz yoki zo'ravonlikka guvoh bo'lganida yuz beradi. Jahan psixologlarining xulosalariga ko'ra, bolalarning taxminan 46 foizi ma'lum bosqichlarda u yoki bu ko'rinishda ruhiy jarohatni boshdan kechiradi.

RUHIY JAROHATGA OLIB KELUVCHI SABABLAR

Kuchli og'riq beruvchi jismoniy, jinsiy zararlar, dahshatlari

voqealarning guvohi bo'lish, keng qamrovli tibbiy yordam talab qiladigan og'ir kasallikni boshdan kechirish, oilada zo'ravonlik harakatlari, timmsiz stressli vaziyatlarga dosh berish, yangi joyga ko'chish va shu kabi boshqa salbiy voqealar bola ruhiyatiga eng ko'p zarar yetkazuvchi omillardan sanaladi. Kattalardek fikrlash salohiyatiga ega bo'lmagan bolalar uchun bunday voqeiklarni tushunish, tahliq qilish qiyin kechadi. Mushkul vaziyatga birinchi marta to'qnash kelgan bolada hayotiy tajriba yetishmasligi tufayli voqe mahiyatini to'liq anglamaydi va ko'pincha o'zini ayblay boshlaydi. Chunki ular yuzaga kelgan og'rigli hodisalarning sabablari va oqibatlarini tushuna olmaydi. Shu sababdan ham katta yoshta yuzaga keluvchi turli xil ruhiy muammolar, kasalliklar bilan vaqtida hal qilinmagan, davolanmagan bolalikdagisi ruhiy jarohat o'tasida inkor etilmaydigan bog'liqlik bo'ladi.

BELGILARI

Ota-onalar, vasiylar yoki bola bilan tez-tez muloqtda bo'ladigan boshqa shaxslar

sezishi mumkin bo'lgan ruhiy shikastlanish belgilariiga quydigilar kiradi:

- ba'zi odamlar, joylar va narsalardan qochish, berkinish;
- o'quv faoliyati natijalaridagi salbiy o'zgarishlar (*baholarning pasayib ketishi*);
- xulq-atvordagi o'zgarishlar;
- doimiy tashvish yoki xavotir, qo'rqoqlik;
- diqqatni bir joyga jamlashga qynalish;
- giperaktivlik, o'ta darajadagi sho'xlik;
- xafagarchilik yoki gina hissining kuchayishi;
- oila va tengdoshlardan ajralib olish va o'ta mustaqillik;
- ilgari unchalik ahamiyatsiz bo'lgan vaziyatlarga haddan tashqari munosabatda bo'lish;
- bir vaqtlar zavq bergen o'yinlar, harakatlar yoki o'yinchoqlardan qochish;
- ishtahaning o'zgarishi;
- uyqudagi qiyinchiliklar;
- uni nazorat qiluvchi shaxslar bilan bog'liq muammolarning yuzaga kelishi;
- o'zgaruvchan his-tuyg'ular (*masalan, qayg'u, g'azab, asabiylashish*);

– arzimas sabablarga nisbatan oson va kuchli g'azab, agressiya va hokazolar.

Ushbu belgililar bolaning yoshi, rivojlanish darajasi, qo'llab-quvvatlash tizimi va tajribasi kabi xususiyatlari qarab farq qilishi mumkin.

Achinarli tomoni, ko'p hollarda reaksiya hissiz alomatlardan tashqriga chiqishi va jismoniy kasalliklar ko'rinishida namoyon bo'lishi mumkin. Bunga bolalarda ko'p uchraydigan sababsiz bosh va qorin og'riqlari misol bo'la oladi.

Yodda tutish lozimki, boladagi ruhiy jarohatlar vaqtida davolanmasa, nafaqat oddiy kasalliklar, balki butun umr davom etadigan surukali xastalik va ruhiy buzilishlarni keltirib chiqarishi mumkin. Bu nafaqat bola va ota-onalar uchun, balki butun jamiyat uchun ham xavf tug'diradi. Dunyo tarixida millionlab insonlarning yostig'ini quritgan, turli dahshatli voqeiklalar, urushlarga sabab bo'lgan shaxslar – Adolf Hitler, Iosif Stalin, Saddam Husayn, Augusto Pinochet kabi diktatorlar, seriyali qotilliklarni amalga oshirgan jinoyatchilarning kasallik tarixi va turmush tarzi o'rganilganda ruhiy buzilishlarning ildizi aynan balalikdagi ruhiy jarohatlariga borib taqalishi isbotlangan.

KATTALARDA BOLALIK TRAVMALARINING BELGILARI

Hamma kattalar ham boshdan kechirayotgan salbiy ruhiy holatlarni bolalik jarohatining natijasi bo'lishi mumkinligi haqida o'ylayvermaydi. Ular voqeikni shaxsiy kamchiliklari, atrof-muhit omillari yoki o'zlarining xatolariga bog'laydi. Ammo bolalik jarohatlar ba'zida tuyg'ularni normal, mutanosib ishslash tizimini izdan chiqargan bo'ladi: odam yo'ta hissiy, yoki o'ta befarr bo'lib qoladi. Bundan tashqari, bolalikda "travma" olgan inson shaxs sifatida jamiyatda o'z o'mini topishga qynaladi. Ko'pincha bunga uning ijtimoiy normalarga to'g'ri kelmaydigan reaksiyalari sabab bo'ladi.

Masalan, unda sal narsaga uzr so'rayverish, barcha voqealarda o'zini ayblash, kichik negativ vaziyatlarda kuchli tushkunlikka tushib qolish, yig'loqilik va boshqa kattalarga xos bo'lmagan odatlar kuzatiladi.

Psixologiya rivojlanganiga qaramay, kattalarga bunday tashxis qo'yishning aniq retsepti mavjud emas. Biroq bolalikda ruhiy jarohatga uchragan insonlarda bir qancha umumiyyat, ogohlantiruvchi ruhiy belgilarni ko'rish mumkin.

BULAR:

- qarama-qarshi jins vakili bilan yomon, qoniqarsiz yoki zaif munosabatlar;
- boshqalarga nisbatan ishonchszilik;
- kayfiyat tez o'zgarishi va hissiy beqarorlik;
- maqsad, diqqat va konsentratsiya bilan bog'liq muammolar;
- alkogol, umuman, kayf beruvchi istalgan moddalarga moyillik;
- g'azab va tajovuz;
- giyohvand moddalarni iste'mol qilish, qaramlikka moyillik;

– stress, shaxsiyatning buzilishi;

- xulq-atvov muammolari yoki hissiy yetuklik;
- qarama-qarshilik yoki mojaroy yuzaga kelganda ularni bartaraf qila olmaslik.

JISMONIY BELGILAR:

- charchoq, holsizlik, uyquchanlik;
- mushaklarning kuchli tarangligi, ayniqsa ensa va bel mushaklarida;
- bosh og'rig'i;
- dam olish va qayta tiklanish qobiliyatining yo'qligi;
- uyqu buzilishi;
- psixosomatik kasalliklari chalanganlik (*psixologlarning fikriga ko'ra, psixosomatik kasalliklar 80 dan 100% gacha ruhiy shikast tufayli rivojlanadi*).

DAVOLASH CHORALARI

Kattalardagi bolalik jarohatlar har doim ham ularning to'laqonli hayot kechira olmasligini anglatmaydi. Bolalikda ruhiy jarohatlanganlik alomatlarini o'zida sezgan va undan qutulishni istagan insonlarga quyidagi qadamlar birmuncha yordam beradi:

1. O'sha voqealikni ixtiyoriy boshdan kechirib, uni o'sha yerda tugatish va xotiralarda o'rnini kamaytirish kerak. Buning uchun yig'lang, gapirib bering, yaqinlarining yordamlarini qabul qiling.

2. Boshqalarga ruhiy va moddiy madad bering. Ko'pincha bunday yordam sizni turli joylarga borishga, yangi odamlar bilan uchrashishga, o'zingizni tiklash uchun kuch topishga imkon beradi.

3. O'z his-tuyg'ularingizni, iztiroblaringizni tan oling va nomlang. Nomlash sizni ruhiy jarohat bilan ajralib turishga,unga tashqaridan qarashga imkon beradi. Chunki biz muammo bilan bir nomda, bitta muhitda bo'lib qolganimizda o'zimizni nochor his qilamiz.

4. Og'riq va his-tuyg'ularingizni qog'ozga to'king. Bu holatda muhimi og'riqlaringiz sizdan qog'ozga ko'chib o'tganini his qilishning kerak. Ushbu mashqni toki iztiroblar kamaygunicha bajarish tavsiya etiladi.

Biroq jarohat asoratlari jiddiy bo'lib, insonning kundalik turmushiga xalal bera boshlasa, albatta, mutaxassis psixologga murojaat qilish kerak. Boisi ba'zida jarohatlarni noto'g'ri yo'il bilan davolashga urinish uning yanada chuqurashishiga olib kelishi mumkin.

Surʼi qusurlar, shafqatsizliklar va hissizlik avj olayotgan ayni zamonda farzandlarimizga nafaqat to'g'ri ta'limga, balki baxtli bolalik ham berish har doimgidan ko'ra dolzarbroq bo'lib boryapti. Chunki har qanday jamiyat aqlli, intellektual va sog'lom odamlar bilan yuksaladi.

Shunday ekan, agar sizda bolalik jarohatlari bo'lsa va ularning yashashningizga xalal berishini, farzandlaringizda ham davom etishini istamasangiz, bugun o'zingizga oyna tutishni o'rganing.

**Abdulazizzon AKRAMOV,
psixolog**

YOSHLAR FAOULLIGINI OSHIRISHDA “VATANPARVAR” TASHKILOTINING AHAMIYATI

O'zbekiston Respublikasi mudafaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkilotining Samarqand birlashgan texnika məktəbində davra suhbati təşkil etildi.



Mazkur məktəbinin avtomototransport həyvəchilərini təyyarələş o'quv kurslarında o'qiyotgan yoshlar ishtirokida "İttimoiy həyət yoshlar faoulligini oshirishda "Vatanparvar" tashkilotining ahamiyati" mavzusunda uchrashuv bo'lib o'tdi.

Davra suhbati mehmoni uzoq yillar davomida o'qituvchilik kasbida işləb, nafaqaga chiqqan Rashid Alimov viloyat yoshlarining həyətə o'z o'rinnarini topishda "Vatanparvar" tashkiloti muhim o'rın tutğanligini alohida ta'kidləb, bunga bir neçə misollarnı keltirdi. "Vatanparvar" tashkiloti nafaqat kasbga o'rgatış muassasası, balki tarbiya maskanı hamdır", dedi jumladan faxriy ustoz.

Uchrashuvning yana bir mehmoni uzoq yillar davomida Samarqand birlashgan texnika məktəbində o'qituvchi bo'lib işləgən mehnət faxriysi Hakim Sattorov ushbu tashkilotda kasbhunar egallagan, sport bilan shug'ullanın va hərbçi-vatanparvarlıq ruhida tarbiyalangan minglab yoshlar həzirdə respublikamızda turli ijtimoiy-iqtisodiy, sport va mudofaa sohalarında müvaffaqiyatlı faoliyat yuritənligini fəxr bilən ta'kidlədi.

So'ngra yoshlar pnevmatik quroldan o'q otish sport seksiyyasiga taklif etilib, ularga o'q otish bo'yicha mahorat darsları o'tıldı. Ushbu o'quv muassasasında, shuningdek avtosport, radiosport va yozgi biatlon bo'yicha sport seksiyyaları faoliyat yuritishi yoshlarda yanada ko'proq taassurot qoldirdi.

IMKONIYATI CHEKLƏNGANLAR UCHUN YANA BIR IMTIYOZ

3-dekabr – Xalqaro nogironlar kuni munosabati bilan "Vatanparvar" tashkiloti navbatdagi xayrlı ishga qo'l urdi.



Tashkilotning Samarqand viloyati kengashi tasarrufidagi "Afrosiyob" o'quv sport-texnika klubida O'zbekiston kar-soqovlar jamiyatı hududiy bo'limining 24 nafr a'zosını həyvəchilikka o'qitish boshlandı.

Endilikda ushbu fuqarolar 4,5 oy davomida o'quv sport texnika klubining avtomototransport həyvəchilərini təyyarələş kursında "B" toifasi bo'yicha sabiq oladilar. Ularga nazariy va amaly darsları o'zlashtırışda o'qituvchi va instrukturlardan təşqarı surdo-tarjimon yordam berib boradi.

Mash'ulotning birinci kündi O'zbekiston kar-soqovlar jamiyatı Samarqand viloyati bo'limi raisi Dilshod Tuyg'unov "Vatanparvar" tashkiloti jamaasiga ushbu xayrlı ish üçün chucur minnatdorlik bildirdi va həyvəchilikni o'rganish arafasida turgan fuqarolarnı hayotlariagi muhim vogelik bilan tabrikladı.



O'zbekiston Respublikasi mudafaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkiloti matbuot xizmati

✓ OLOV – TILSIZ YOV

MAQSAD – YONG'IN XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH

Joriy yil 15-noyabrdan 15-dekabrgacha respublika hududida "Yong'in xavfsizligi oyligi"ni o'tkazish belgilangan. Mazkur oylik doirasida birinchi galda aholining yong'in xavfsizligi masalalarida bilim va ko'nikmalarini oshirish hamda ularda shaxsiy xavfsizlik madaniyatını şakllantirish, iqtisodiyot tarmoqlari, ijtimoiy soha obyektlari hamda uy-joy fondini yong'in xavfsizligi talablariga muvofiq holga keltirish asosiy maqsad qilib olingan.



Sharqiy hərbçi okrugga qarashlı Quva tumanidagi hərbçi qismda yong'in xavfsizligiga doir navbatdagi tədbir o'tkazıldı. U shaxsiy tərkibində yong'in xavfsizligini tə'minlash, is gazdan zaharlanışının oldını olish, hərbçi buyum, texnika, bino və inshootlarnı yong'in dan asrası, yong'in sodır bo'lishiga yol o'q ymaslik hamda hərbçi qism və muassasalarda kuz və qish mavsumida yong'in xavfsizligi bo'yicha chora-tadbirları kuchaytirishni təşkiləştişirish maqsadiga qaratıldı.

Mash'ulot avvalida yig'ilganlara yong'in xavfsizligi profilaktikasiga oid eslatmalar tarqatıldı. So'ngra soha mutaxassisları tomonidan yong'in sodır bo'lgan favqulodda vaziyatlarda harakatlanış tartibi hamda o't o'chiruvchi maxsus vəsitalardan to'g'ri foydalanan qonun-



qidaları amaliy tarzda tushuntirib berildi. Xonadonlarda faqat soz holatdagi maxsus elektr jihozlardan foydalanan zarurligi, qo'lbola isitish uskunalarını ishlətish həyət üçün xavfsizlik qoidaları haqida tushuntirish ishləri olub borıldı və yong'in xavfsizligi chora-tadbirları bo'yicha eslatmalar tarqatıldı.

Tədbir davomida hərbçi shaharchada istiqomat qilayotgan hərbçi xizmatchilarning ola a'zolariga gaz və elektr asboblarından foydalananlayotganda yong'in xavfsizlik choralariga amal qılış, tutun mo'rili sozligini mutaxassislar tomonidan tekshirish, gaz isitish pechlarida rezina quvurlardan foydalananmaslik kabi xavfsizlik qoidaları haqida tushuntirish ishləri olub borıldı və yong'in xavfsizligi chora-tadbirları bo'yicha eslatmalar tarqatıldı.

Kichik serjant
Bobomurod NURATOV

Ijodiy jamoamiz bilan Nukus garnizonidagi eng olis harbiy qismlardan birida mehmon bo'ldik. Harbiy qism haqiqatan ham Nukus shahridan ancha olisda, mashinada uzoq yo'l bosib, harbiy qismga yetib bordik. Harbiy qism o'tgan yillar ichida tubdan yangilangan. Shinam o'quv sinflari, yotoqxona, oshxona, ma'naviyat va ma'rifat markazi faoliyati yo'lga qo'yilgan. Biz iliq taassurotlar bilan harbiy qism hayoti bilan yaqindan tanishgach, askarlarni suhbatga chorladik.

ORZULARI OSMON O'G'LONLAR



**Bo'riboy
O'KTAMOV**



**Samandar
QODIRJONOV**



**Iskandar
O'TKROV**



**Asadbek
O'RINBOYEV**



**Otabek
USMONALIYEV**

– Keling, suhbatni harbiy qismiga kelishdan oldingi voqealardan boshlay qolay, – deydi ilk suhbatdoshim oddiy askar Bo'riboy O'ktamov. – Avval poyezdda uzoq masofa yo'l bosib, Nukusga keldik. Va yana texnika bilan uzoq masofali hududga qarab ketdik. Zominda o'sgan bolamasmanmi, avtobusning o'ng-u so'liga qarayman – cho'l. Hali harbiy qismga bormasimdan burun uyimga qaytgim keldi. Shu tob ko'z oldimda ota-onamning oq fotiha tilab qolgan chehrasi gavdalandi. Egnimga harbiy libos kiyaman, deb orzu qilgan vaqtlarim hali maktabga ham chiqmagan bola edim. Hozirdan ortga chekinsam, bu libosga noloyiq bo'lib qolmaymanmi, deb shashtimdan qaytdim.

– Angren shahridan muddatli harbiy xizmatga chaqirildim, – deydi oddiy askar Samandar Qodirjonov. – Onam meni kichkinaligimdan “askar” deb erkaldi. Yosh bola ekanman-da, onamning gaplariga iyib, harbiycha salom bilan shaxdam

Do'stlarimdan biri vohada, biri vodiyya, o'zim esa Qoraqalpog'istonda Vatan oldidagi farzandlik burchimni o'tayapman. Harbiy qismimizda xizmatdan bo'sh vaqtimizda kitob o'qishga, o'qishga tayyorgarlik ko'rishga ham vaqt ajratamiz. Harbiy qismimizdag'i “Badiiy havaskorlik” to'garagi a'zosiman. Orzularim ko'p, eng avvalo, yigitlik burchimni sharaf bilan o'tab, ota-onam bag'riga yorug' yuz bilan qaytish. Harbiy xizmatdan so'ng men ham oliy harbiy ta'lim muassasasiga o'qishga kirishni niyat qilib qo'ydim.

– Namangan viloyatining Yangiqo'rg'on tumanidanman, – deydi oddiy askar Asadbek O'rionboyev. – Bizning qishloq Qirg'iziston chegarasiga juda

qadam tashlab qo'yardim. Oradan yillar o'tib, mana, askarlik hayoti bilan yuzlashdim. Ochig'i, bu yerda hammasi o'zim orzu qilganimdek bo'lib chiqdi. Kelgusida Chirchiq olyi tank qo'mondonlik-muhandislik bilim yurtiga o'qishga kirib, ofitser bo'lishni maqsad qildim. Bo'sh vaqtlarimda tarixiy kitoblar mutolaasi bilan bandman. Hozircha buyuk sarkardalarimizdan Zahiriddin Muhammad Bobur hayoti va harbiy san'ati haqida so'zlovchi kitoblarni mutolaal qilishga ulgurdim. Pirimqul Qodirovning sodda va samimiyl tilda yozilgan “Yulduzli tunlar” asari ham menga juda ma'qul keldi.

– Juda ko'p qishloq dosh akalarimiz Qurolli Kuchlarimiz safida xizmat qilmoqda, – deydi g'ururlanib oddiy askar Iskandar O'tkrov. – Tog'am ham ichki ishlar sohasida uzoq yil xizmat qilib, pensiyaga chiqqan. Biznikiga mehmonga kelganida ko'p suhbatlashamiz. U menga doim turli mashqlarni bajartirar, so'ng ishonch bilan: “Iskandar, sendan zo'r harbiy chiqadi”, deb ko'nglimni ko'tarardi. Maktabni bitirib, sindoshlar birin-ketin armiyaga ketdik.

yaqin. Chegarada harbiy xizmatchilarni ko'rsam, ularga havasim kelardi. Ulardek egnimga harbiy libos kiyishni orzu qilardim. Maqsad va harakat insonni orzulari sari yetaklar ekan. Mana bugun qalbimda uyg'ongan ezgu niyat amalga oshdi. Harbiy xizmat men uchun majburiy burch emas, balki olyi sharafga aylandi. Amir Temur, Jaloliddin Manguberdi singari buyuk sarkardalarning avlodini ekanligim menga katta g'urur bag'ishlaydi. Armiyamizda yaratilgan shart-sharoitlardan unumli foydalanib, Chirchiq olyi tank qo'mondonlik-muhandislik bilim yurtiga o'qishga kirmoqchiman. Biz harbiy xizmat mobaynida nafaqat jangovar tayyorgarlik mashqlarida toblanmoqdamiz, balki ma'naviy-ma'rifiy tayyorgarlik mashg'ulotlarida ham bilim va ko'nikmalarimiz shakllanmoqda. Harbiy qismimizda madaniy-ma'rifiy tadbirlar tashkil etilib, unda yurtimiz rivojiga ulkan hissa qo'shayotgan ilm-fan, madaniyat va san'at sohasining taniqli insonlari tashrif buyuradilar. Ularning ilmiy, ijodiy faoliyati va boy tajribaga ega hayoti bizlarga

desam, yanglishmagan bo'laman. Ota-onamning ko'zidagi quvonch yoshlari, yaqinlarimning menga bildirgan yuksak ishonchidan so'ng o'zgarishim kerakligini his qilganman. Endi kelajakda amalga oshirishim kerak bo'lgan maqsad va istaklarim bor. Burch, mas'uliyat va ishonch bir inson taqdirda qanchalik muhim rol o'ynashi mumkinligini men o'z hayotim misolida ko'ryapman. Armiya bizlarni bardoshli, irodali, matonatli, tez va chaqqon harakat qila bilish kabi Vatan himoyachisiga xos fazilatlarni o'rgatmoqda. Bundan juda mammunman. Kelajakda qaysi kasb egasi bo'lmoxchisiz, deysizmi? Men harbiy xizmatni kontrakt bo'yicha davom ettirmoqchiman.

Askarlar bilan suhbatimiz maroqli kechdi. O'sha suhbatda ular harbiy qism shaxsiy tarkibi uchun Amir Temur hayoti va jang san'atiga bag'ishlangan sahna ko'rinishi tayyorlayotganliklarini aytdilar. Birgalikda ma'naviyat va ma'rifat markaziga yo'l oldik. Vatanparvar o'g'lonlar sahnada rolda kirib, birin-

ketin “Temur tuzuklari” dan parchalar o'qib berdilar. Vatan posbonlarining ijodkorlik mahoratiga tahsin atib, ular bilan xayrashdik.

Darvoqe, askarlar harbiy qismidagi kutubxona faoliyatidan mammun ekanlar. Kutubxonachi Nodira Madrimova askarlarning kitob o'qishga qiziqishlarini oshirish maqsadida turli loyihibar tashkil etib, yangi-yangi asarlar bilan yaqindan tanishtirarkan.

Shunday qilib, harbiy qismning jo'shqin hayotidan bir olam taassurot olgancha optimizga qaytdik.

**Shohista ABDURAHМОNOVA,
Shimoli-g'arbiy harbiy okrug
matbuot xizmati bosh
mutaxassisи**

Joriy yil boshidan O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkiloti tomonidan ellikka yaqin sport musobaqasi o'tkazildi. Sportning texnik va amaliy turlari bo'yicha o'tkazilgan bu bellashuvlarda barcha hududlardan qatnashgan jamoalar faol ishtiroy etdi.



SUPERMOTOKROSS G'OLIBLARI ANIQLANDI



Poytaxtimizdag'i "Vatanparvar" tashkiloti
Respublika texnik va amaliy sport turlari markazida
tashkil etilgan supermotokrossning mamlakat
birinchiligi uchun o'tkazilgan bahslarda yurtimizning
turli hududlaridan tashrif buyurgan sportchilar o'zaro
bellashdi. Ta'kidlash joiz, ushbu musobaqa tashkilot
tizimida 2023-yilgi sport mavsumining yopilishi
hisoblanadi.

Supermotokross dunyo bo'ylab juda mashhur, shu bilan birga ekstremal sport turi hisoblanadi. Chunki sportchilar bellashadigan musobaqa trassasi

ko'plab murakkab va bir-biridan qiyin to'siqlardan iborat. Sportchilardan bunday joylardan yuqori tezlikda balandga sakragan holda to'g'ri harakatlanish talab etiladi.

Supermotokross bo'yicha sport musobaqasi quyidagi sinflarni o'z ichiga oladi:

- 85 sm³ sinfida (12-15 yosh) - 7 daqqa;
- 125 sm³ sinfida (14 yoshdan 18 yoshgacha)
- 8 daqqa;
- 500 sm³ sinfida (18 yosh va undan katta yoshdagilar) - 10 daqqa + 2 aylanma;

– ChZ sinfida (*18 yosh va undan katta yoshdagilar*) –
10 daqqaq + 2 aylanma.

Qizg'in va murosasiz kechgan bahslar yakuniga ko'ra, umumjamoa hisobi bo'yicha 3-o'rIN Navoiy, 2-o'rIN Buxoro viloyatiga nasib etgan bo'lса, faxrli 1-o'rinni Olmaliq kon-metallurgiya kombinati jamoasi qo'lgа kirtdi.

G'oliblar tashkilotning diplom va qimmatbaho sovg'alari bilan taqdirlandi.

**Katta leytenant Islomjon QO'CHQOROV,
"Vatanparvar"**

The page features a large, stylized graphic of an eagle on the left side. In the center, there is a photograph of three people (two men and one woman) sitting at a desk in an office setting, with flags in the background. To the right of the photo is a green copy of the 'O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi' (Constitution of the Republic of Uzbekistan). Below these images is another photograph showing a group of people standing around a table, possibly at a community event or meeting.

O‘zbekiston Respublikasi
mudofaasiga ko‘maklashuvchi
“Vatanparvar” tashkiloti
Surxondaryo viloyati kengashi
tasarrufidagi Jarqo‘rg‘on tuman
o‘quv sport-texnika klubi
jamoasi aziz yurtdoshlarimizni,
shuningdek barcha harbiylarni
hamda “Vatanparvar” tashkiloti
tizimidagi hamkasblarini, ularning
oila a‘zolarini ona Vatanimiz
hayotidagi qutlug‘ sana 8-dekabr
— O‘zbekiston Respublikasi

*Konstitutsiyasi qabul qilinganligining
31 yilligi munosabati bilan muborakbos etadi.
Muhtaram vatandoshlar! El-yurt ravnaqi, xalqimiz
farovonligi yo'lidagi samarali ishlaringizda ulkan zafarlar
uor bo'lsin!*




DUSHMANINGIZ

ICHINGIZDA! Ochlik mo'jizasi yoxud autofagiya nima?



Ushbu maqolani yozishdan avval uch kunlik ochlikni o'zimda sinab ko'rdim. Shunday qilsam, bu haqda yozish, o'rganganlarim bilan bo'lishishga ma'nnaviy haqqim bordek go'yo. Maqolada G'arbda millionlab nusxada nashr etilgan asar "Ochlik mo'jizasi" kitobi hamda zamonaviy ilmdagi ochlik natijasida ishga tushadigan mo'jizaviy jarayon autofagiya haqida suhbatlashamiz.



Pol Bragg ushbu kitobiga qiziqish talabalik davrimizda, universitetga kelib do'konlardan topish qiyin kitoblarni sotadigan amakining bisotidan boshlangan. Dugonam bilan kitobni sotib olib, 15 betini o'qishimiz bilanoq ochlik e'lon qilish qaroriga keldik. To'g'ri ovqatlanish qoidalari amal qilmay yurgan talaba qizlar birdaniga uch kun och yurgach, kitobning davomini o'qigani holimiz qolmadi hisob. Uchinchi kuni buyuk ish qilgan daholardek bekatdagi mazali tandir somsalar bilan ochlikni yakunladik. Kechga borib ikkимизнинг ahvolimiz yomonlashdi, kitob muallifini "yaxshi so'zlar" bilan "sylagancha" sessiya oldi bir necha kun dars qoldirishga majbur bo'ldik. Bu ochlikdagi birinchi tajriba, aniqrog'i, muvaffaqiyatsiz urinish edi. Keyinchalik kitobni oxirigacha o'qib, bu kabi ochlikdan avval va keyin parhez qilish, yengil taomlar, sharbatlar bilan oziqlanish kerakligini bildik.

Pol Bragg o'zining eng mashhur kitoblaridan biri "Ochlik mo'jizasi"da ochlikka tayyorlanish, amalga oshirish va undan chiqish, shuningdek sog'lom ovqatlanishga o'tish haqida ma'lumot beradi. Oxirgi yillarda autofagiya termini ommalashishi esa ochlik bilan davolanish tarafdarlarini yanada ruhlantirdi. Brigg sog'lom turmush tarzi bo'yicha ko'plab asarlar nashr etgan. Uning sharofati bilan Amerika jamiyatni organik mahsulotlarga qiziqib goldi. Ko'pchilik uchun Amerika, birinchi navbatda, tez tayyorlanadigan taom fast-fudlar vatanidir. Ko'p miqdorda konservantlar, lazzat kuchaytirichilar, tanaga foyda keltirmaydigan bo'yoqlar mavjud bo'lgan bu kabi taomlar o'ziga nisbatan qaramlik keltirib chiqaradi. Amerikalik olimlar bolalar va o'smirlar



ishtirokida tadqiqot o'tkazib, fast-fud bolaning ruhiyatiga salbiy ta'sir qilishini aniqlagan. Afsuski, hozirgi kunda yurtimizda ham bunday taomlar yoshlar o'tasida ommalashib bormoqda.

AUTOFAGIYA O'ZI NIMA?

Autofagiya (*auto* – "o'zi" va *φαγεῖν* – "yemoq") ma'ninosini anglatib, u hujayralarda sodir bo'ladigan jarayondir. Inson tanasi turli xil hujayralardan iborat. Voyaga yetgan odamning tanasida o'ttacha o'ttiz trillion hujayra mavjud. Har bir hujayraning ichida "oshqozon" – "lizosoma" bo'lib, ular hujayra ichidagi murakkab oziq moddalarni parchalab, energiya ishlab chiqaradi. Ochligimizda esa hujayralarimizga keraksiz narsalardan xalos bo'lish imkoniyatini beramiz. Albatta, bu holat tanada doimo sodir bo'ladi, ochlik vaqtidagi qisqa muddatli stress autofagiya jarayonini sezilarli darajada kuchaytirishi mumkin.

Ko'pchilik autofagiya terminini yapon biologi Yoshinori Osumi bilan bog'lasa-da, aslida bu hodisani ilk mara belgiyalik biokimyogar Nobel mukofoti sovrindori Kristian de Dyuv 1963-yilda o'rangan. U hujayra biologiyasiga 1955-yilda "lizosoma", 1956-yilda "peroksisoma", 1963-yilda esa Londondagi kongressda "autofagiya", "endotsitoz" atamalarini kiritdi. Autofagiya bir qator omillar, jumladan ochlik, ro'za tutish, kaloriyalarni cheklash va jismoniy mashqlar bilan shug'ullanganda faollahashi. Ushbu jarayon bu hujayra darajasida sodir bo'ladi, ba'zi kasallikkalar ehtimolini kamaytiradigan va hayotni uzaytiradigan tabiiy yangilanish jarayoni bo'lib, vazn yo'qotish, salomatlik va uzoq umr ko'rishga

faol yordam berishi olimlar tomonidan ko'p ta'kidlanadi.

KUNDALIK SALBIY ODATLAR

Pol Breggning "Ochlik mo'jizasi" kitobi autofagiya jarayonini ishga tushirishdagidagi muhim tavsiyalarga boy. Tarixdan ma'lumki, diniy ulamolar va qadimgi olimlar ochlikdan davolovchi vosita sifatida keng foydalangan. Faqat kasal payti yoki organizmni yoshartirish, yangilash payidagina emas, balki ruhiy chiniqish uchun ham och yurishgan.

Faylasuf Pifagor o'z falsafasini o'rgatishdan oldin o'quvchilaridan 40 kun och yurishni talab qilgan. Uning fikricha, 40 kunlik ochlikdan so'ng o'quvchilar fikri tiniqlashib, uning falsafiy qarashlarini oson o'zlashtirishlari mumkin ekan. Demak, ochlik avvallari ham, hozir ham faqatgina organizmni tozalabgina qolmasdan, insонning aqliy va ruhiy faolligini ham yaxshilaydi.

Inson ongli ravishda ovqatlanan, chanqog'ini bosadi, lekin bila turib o'zini tuta olmagani sababli yashashi mumkin bo'lgan muddatning yarmiga yetmasdan vafot etadi. Yovvoyi hayvonlar ularni tashqaridan yo'q qilmasa, o'zlariga ajratilgan muddatni to'la yashab, so'ngra o'ladi. Insongina o'ziga belgilangan hayot muddatini to'la yashamasdan dunyodan o'tib ketadi. Yovvoyi hayvonlar o'z instinctiga suyanib, qanday yashash, nima yeyish va nima ichishni sezadi. Ular kasalligida parhez qilib, ovqatlanmaydi. Davolovchi o'simlik va boshqa vositalarni qidirib topadilar. Inson esa barcha narsani iste'mol qiladi, hatto hazm bo'lishi qiyin bo'lganlarini ham, buring ustiga zararli ichimliklar ichadi. Keyin esa nima uchun insonlar yuz yoshgacha yashamayotganiga ajablanadilar.

ZAHARLI KISLOTA KRISTALLARI QANDAY HOSIL BO'LADI?

Tabiatan biz, insonlar ovqat iste'mol qilamiz, suyuqlik ichamiz, nafas olamiz. Ko'pchilik odamlar esa haddan ziyyod ko'p ovqatlanadi, ochlikdan emas, odatiga binoan. Bunday katta hajmdagi ozuqani maydalash, hazm qilish, ortiqchasi chiqarib tashlashga organizmning kuchi yetmaydi. Oqibatda esa organizmda doim toksik, zaharli qoldiqlar qoladi, ular cho'kadi va kristallarga aylanadi.

Bu ancha sekin jarayon bo'lib, ko'p yillar noto'g'ri ovqatlanish natijasida bo'g'inalar orasida kristallar yig'iladi va o'riqlar paydo bo'la boshlaydi. Oyoqlarda harakatlanuvchi suyaklar boshqa a'zolarga nisbatan ko'pligi sabab ular avval oyoqda paydo bo'ladi. Chunki har bir oyoqda 26 ta harakatlanuvchi suyak mavjud.

DUSHMANINGIZ ICHINGIZDA!

Ko'pchilik odamlar nafs quliga aylanganligiga urg'u bergen Brigg insonlar ochmi yoki to'qmi, ko'p yeyish, ayniqsa sifatsiz ovqatlanishdan azyat chekishini ta'kidlab, quyidagi maslahatlarni beradi.

Avval haftasiga 24–36 soatli, faqat distillangan suv ichib och yurishni odat qiling, taom yeydigan kuningizda faqat tabiiy ozuqa bilan ovqatlaning. Tanangizni aql boshqarsin, istak emas! Istak – aqsliz!

Haddan tashqari ko'p ovqat yeyish sizni muddatdan oldin o'ldiradi. Sabzavot va mevalar tabiiy tozalovchi hisoblanadi. Boshlanishiga oz-oz iste'mol qiling, toksik zaharlardan tozalanguningizga qadar haftasiga 24 soatli och yurish organizmni to'liq tozalaydi.

Agar siz 3–7 kun och yurishga kuch topsangiz, organizmingiz to'la tozalanadi. Haftasiga bir kun och yuring, shuning, o'zi yiliga 32 kunni tashkil qiladi. Bu vaqt ichida organizmda hayotiy kuch ko'payadi va bu zaharli kristallarni chiqarish uchun yetarli bo'ladi. Muhibi, har bir ochlikdan so'ng siz o'zingizni erkinroq sezasiz.

INSON PICHOQ VA QOSHIQ BILAN O'ZIGA CHOH QAZIYDI

Rostdan ham shunday. Ko'pchilik oshqozoniga dam bermaydi. Ovqat hazm qiluvchi a'zolarni shunchalik to'ldiradilar, oxir-oqibat ular faoliyatni ishdan chiqadi. Shunday vaziyatda siz o'zingizni ochlik bilan davolamoqchi bo'lsangiz, biroz bardoshliroq bo'lishingizga to'g'ri keladi. Chunki organizmdan toksin va zaharli moddalar chiqayotganda, qon tozalanayotgan vaqtida o'zingizni a'lo darajada sezmaysiz, albatta. Shunday vaqtida hammasi o'tib ketadi, deb o'zingizga qayta-qayta tasalli bering. Maqsadingiz yo'lida qattiq turing, ko'rasiz, ajoyib natijalarga erishasiz.

24 SOATLIK OCHLIK DAN SO'NG BIRINCHI ISTE'MOL QILINADIGAN OZUQA

Yangi uzilgan sabzavotdan salat, qirg'ichdan o'tkazilgan sabzi va karam, unga ozroq apelsin yoki limon sharbati qo'shilsa, ta'mi yoqimli bo'ladi.

Esingizda bo'lsin, ochlikdan so'ng hech qachon go'sht, baliq, pishloq, sariyog', yong'oq va shunga o'xshash ozuqlar iste'mol qilmang. Sizning birinchi ovqatingiz salat va pishirilgan sabzavot bo'lishi kerak.

24 soatlik ochlikdan so'ng ikki kun o'tgunicha og'ir hazm bo'ladigan taom iste'mol qilmang.

Muallif o'quvchilarga irodasiz, achninari ahvoldagi inson darajasiga tushib qolishga yo'il qo'ymaslik uchun eng to'g'ri maslahat sifatida yuqorida tavsiyalarini beradi. Doimiy tarzda tetik va sog'lom hayot kechirishimizda ushbu tavsiyalar foydadan xoli emas.

Qo'shimcha o'rniда. Hozirgi kunda hayotimizda, ayniqsa ijtimoiy tarmoqlarda ozish, parhezning turli usullari haqidagi tavsiyalar ko'payib ketgan. Lekin o'quvchi ularni o'zida sinab ko'rishidan avval mutaxassis bilan albatta maslahatlashishi, sinalgan usullarni qo'llashi, turli manbalardan o'qib o'rganishi lozim bo'ladi.

Laylo ISMAILOVA tayyorladi.

FARZANDLARIMIZ

YUZIMIZ, ORIMIZ, NOMUSIMIZDIR



ta'sirida insoniy qadriyatlar, farzand tarbiyasi, ota-onasi va farzandlar munosabati, shaxslararo, insoniy qarashlar kabi masalalarining biroz chetga surilib qolayotgani odamzod ma'naviyatinining biroz oqsashiga sabab bo'imoda.

Sharq-u G'arb uchun hamisha muhim bo'lgan qadriyatlardan biri – ota-onasi e'zozi. Farzandlarning ular oldidagi burchi, vazifasi borasida esa hamma zamonlarda qimmatli fikrlar bildirilgan. Hech bir farzand ularning qarzini uzishga muvaffaq bo'lgan emas. Farzandlar ota-onanining fidoyligini hamisha ham anglayvermaydi. Ular ota-onasi bo'lganlardan keyingina ular qadr-qimmati, kuyinislari sababini tushuna boshlaydi. Ko'p hollarda bu tushunish kech sodir bo'ladi. Biz beminnat suyanchig'imiz abadiydek ularga doim e'tiborsiz bo'lamiz. Ammo ularning o'mini boshqa hech kimsa, hech bir narsa to'ldira olmasligini, afsuski, ularni yo'qotibgina anglaymiz.

Shu o'rinda ta'kidlab o'tish joizki, bundan besh ming yil oldin topilgan Misr papiruslarida "Hozirgi yoshlar gapga kirmas, bebob bo'lib ketishdi" qabilidagi bitiklar topilgan. Bu shuni anglatadiki, hamma zamonlar uchun ota-onalar va farzandlar orasidagi bir-birini tushunmaslik, qabul qilmaslik kabi muammolar xarakterli bo'lib kelgan ekan. Muammo nimada, kattalar o'zlarini bosib o'tgan yo'lini tez unutishlaridamini yoki yoshlar kattalar zamonasoz emas, deb qarashlaridamikan... Bu savollar ming-ming yillarki yechim izlaydi. Yoshlardagi tajribasizlik, tezlik, aql va kuch-quvvat ularni biroz shoshirib qo'yadi. Ayni damda ularga kattalarning nasihatlari, o'gitlari lozim bo'ladi. Yoshlarning bu o'gitlarni qabul qilishi yoki qilmasligi yana kattalarga bog'liq, ya'ni kattalarning beradigan ta'lim-tarbiyasiga. Buyuk mutafakkir Abdurauf Fitrat ta'biri bilan aytganda, "Xalqning harakat qilishi, davlatmand bo'lishi, izzat-hurmat topishi, jahongir bo'lishi, zaif bo'lib xorlikka tushishi, faqirlik jomasini kiyib, baxtsizlik yukini tortib, e'tibordan qolishi, o'zgalarga tobe, qul va asir bo'lishi, bolalikdan o'z ota-onalaridan oлган tarbiyalariga bog'liq".

Hamisha yoshlardan noliydigandar o'ylab ham ko'rmaydilar: shu gap uqmas yoshlar kim, qayerdan kerak qoldi?! Ularni biz – o'zimiz tarbiyalamayapmizmikan? To'g'rirog'i, tarbiyalashimiz kerak bo'lganda, biz nimalar bilan mashg'ul edik?

Bir tahlil qilib ko'raylik: yoshlar tarbiyasi muammolarini keltirib chiqaruvchi omillar juda ko'p va turli rangda. Biz 25 yil o'tish davri deb yashadik. Mana shu "o'tish" kattalarni juda shoshirib qo'ydi. Ota-onasi asosiy e'tiborni iqtisodiy ehtiyoja qaratishga chalg'iydi. Ayni damda shaxs tarbiyasidagi poydevor davr – bolalik va o'smirlilik davr ta'lim-tarbiyasiga e'tibor ham yo'qoldi-da, biz litsey va kollejlarni ko'klarga ko'tarib, o'zimiz ixтиro qilgan "yangi avlod" bilan faxlanib yurdik. Kollejlarni olqishlaganimiz sayin u maskanlarda farzandlarimiz insoniy qiyofalarini yo'qotib bordi.

Ming yillar mobaynida shakllangan ustoz obro'si arzimagan vaqtida yo'q bo'ldi. Uni kim yo'qotdi, nimalar sabab bo'ldi? Bugun bu savollarga minglab olovli misralar to'la maqolalar javob bo'imoda. Maoshi mehnatidan yuz barobar kam o'qituvchi o'quvchi qo'liga qaradi. Eng og'riqli jihatni ham shunda. Mana, ustoz obro'siga urilgan birinchi bolta! Bu zarbni ko'tara olmagan otadek ulug' ustozlar sohani tark etdi.

Qishloq joylarda deyarli maktabgacha ta'lim faoliyati tugab bo'ldi, maktablar onalar – ayol ustozlarga qoldirildi. Otalar frontga ketgan kabi uzoq yurtlarga ketdi, muallimalar oilasi, ro'zg'ori, ommaviy ishlardan, hujjatlarni yozishdan ortgandagina, dars o'tdi.

Oilar ixchamlashtirildi. Bolajon o'zbek endi ucta farzandni ham "ko'p" bildi. Aksari oilalarda o'g'il bitta bo'ldi. Bola bog'chagacha onasi tarbiyasida, opasingliси davrasida, bog'chada bog'cha opa tarbiyasida, 16 yoshigacha yana ayollar – o'qituvchi opalar tarbiyasiga tashlandi. Mas'ul shaxs – OTA esa "front"da. Shaxs shakllanish tarbiyachiga bog'liq bo'ladigan bo'lsa, tarbiyachi qanchalar mukammal bo'lmisin, o'z dunyoqarashi, ayolligidan kelib chiqib tarbiyaga yondashuvini inobatga olsak, deyarli erkak ta'lim-tarbiyasini ko'rмаган, otasi doimo o'zga yurtda bo'lgan yigitdan nima ham talab qilishimiz mumkin bo'lardi? Hamisha uqtirilan "oilada OTAning o'ni" iborasi amaliyotda qanchalar saqlanib qoldi. Biz OTA o'rnni "mablag' bilan ta'minlovchi" o'niga almashtirib qo'ymadikmi? Ustigustak, bolamizning ta'lim-tarbiyasiga javobgar deb maktabdagi o'sha mushtipar muallimlarni balogardon qildik!..

Vaziyat shu darajada taranglashdiki, muammoni yechish uchun yana Prezidentimiz tashabbus qilib chiqishlarigacha yetib bordi. Beedad shukrki, mamlakatimizning eng chekka qishloqlarigacha bolalar bog'chalari yana faollashdi. Nodavlat bolalar bog'chalari, maktablar kun sayin ko'paymoqda. O'qituvchiga e'tibor va talab ham mamlakat siyosati darajasiga chiqdi va o'z natijalarini bermoqda. Maktablarga iste'fodagi harbiy xizmatchilar ishga jaib etilishi ham muammolarga qaysidir ma'noda yechim bo'imoda. Erkak ustozlarning ko'payishi o'g'il bolalarda vatanparvarlik, jasorat, mardlik, or-nomus, hamiyat tushunchalarining rivojlanishiga sabab bo'lishini inobatga olsak, bu uslub ta'lim tizimida kerakli natijalarni berishiga umid bor. Ammo bu otaning oiladagi o'mini, farzand tarbiyasidagi mas'uliyatini kamaytirmaydi.

Xullas, bugungi informatsion imkoniyatlar zamonida farzandlarimizni tarbiyalash, g'oyaviy



g'oya, ta'limot asosida ulg'aymadi, ularning oladigan informatsiyalari rang-barang. Shuning barobarida yoshlarning psixologik jihatlarini ham inobatga olishimiz lozim.

Ibn Sino "Xitoba" sida "...yoshlar ko'ngilxushliklarga ruju qo'yan, me'orni bilmaydilar. Ehtiroslar kuchli, qiziqqon, fikri beqaror bo'lgani uchun tez tolib, charchab qoladilar. Ularning jahli tez, g'azabini bosolmaydilar, izzat-nafs uchun tez janjallahadilar. O'smirlarning engiltakligi shundan", deya yoshlar psixologiyasini chizib bergan. Shu sabab ham ularni ishontirish, ergashtirish uchun olamga ulardek boqishimiz, ularning qarashlarini hurmat qilishimiz, shuning barobarida o'z qarashlarimizni, shargona qadriyatlarimizni anglatishimiz kerak bo'ladi. Ulardan o'zimiz 40–50 yil sarflab to'plagan aql-idrokimiz, tajribamiz darajasida talab qilishimiz to'g'ri bo'lmaydi. Demak, ota-onalarni izzat, hurmat qilish, ularni qadrlash, boshimiz uzra tutish borasida qancha gapirsak, kattalar ham farzandlarni tushunishi, yoshlarning shiddati, beqarorligini xolis baholashi lozimdir. Biz ularning ta'kidlangan jihatlarini hisobga olsakkina, tarbiyani to'g'ri yo'naltirishimiz mumkin bo'ladi.

Farzandlarimiz bu bizning yangilangan o'zimiz. Bizning bizdan keyingi yuzimiz, orimiz, nomusimiz. Otalar esa buni unutishga haqlari yo'q.

Dilnavoz XOLIQOVA,
Qurolli Kuchlar akademiyasi o'qituvchisi,
filologiya fanlari nomzodi, dotsent



@Vatanparvargazetasi_bot
"Vatanparvar" birlashgan tahririyati bilan bog'lanish uchun telegram bot



SHU SONNING
ELEKTRON SHAKLI

